1.68	İkki aktyor keyingi paytda matbuotda paydo bo‘lgan teatr muammolari to‘g‘risidagi bahslarga Shamsi Salohni ham tortish uchun, tovushlarini bir oz ko‘tarib, munozara qilishardi.	İki oyuncu daha sonraki zamanda basına yansıyan tiyatro meselelerini anlatıp Şemsi Selah’ı da tartışmaya dahil etmek için biraz seslerini biraz yükseltip münazara ettiler.

1.69	— Hamma balo shundaki, u barcha aybni bizning ustimizga yuklayapti, — derdi burni qizil aktyor, — go‘yo biz o‘ynolmayotgan emishmiz.	— Tüm sorun şu ki, o bütün suçu bizim üstümüze yıkıyor, dedi kırmızı burunlu oyuncu, sanki biz rol yapmıyormuşuz.
1.70	Qani, yaxshiroq, dramaning o‘zi bormi, deydigan mard yo‘q.	Hani, daha kötüsü, dramanın kendisi var mı, demeye cesaret eden yok.
1.71	Ular o‘zlari to‘g‘risida lom-mim demaydilar.	Onlar kendileri hakkında ağızlarını açıp konuşamazlar.
1.72	Bu maqoladan boshdan-oyoq artistlar aybdor, ular savodsiz, o‘z ustlarida ishlamaydi degan fikr kelib chiqardi.	Bu makaleden baştan aşağı sanatçıların suçlu olduğu, onların eğitimsiz, kendi başlarına çalışmadıkları fikri ortaya çıkıyor.
1.73	Dramaturgiyamiz-chi?	Oyun yazarımız ne olacak?
1.74	Dramalar zamondan orqada qolmayaptimi?	Dramalar çağın gerisinde kalmıyor mu?
1.75	Bu tog‘rida hech qanday fikr yo‘q, axir kavush yomon tikilsa, oyoqda nima ayb?	Bu konuda hiçbir fikrim yok, sonuçta bir ayakkabı kötü dikilmişse, ayağın ayıbı nedir?
1.76	Bu gap sal oldinda ketayotgan İsmoil Aliga tegib ketdi shekilli, u ogohlantirgandek, tomoq qirib qo‘ydi.	Bu konuşma biraz ileride yürüyen İsmail Ali’yi etkiledi galiba, o ikaz eder gibi boğazını temizlemişti.
1.77	İkki aktyor ham birdan jim bo‘lib qolishdi.	İki oyuncu da aniden susup kaldı.

1.78	Najot izlagandek Shamsi Salohga tikilishdi.	Kurtuluş arar gibi Şemsi Selah'a baktılar.
1.79	Biroq, u hamma narsaga loqayd va parishon edi.	Ancak o her şeye ilgisizdi ve kafası karışmıştı.
1.80	Daraxtzor tugab, ular qandaydir qamish chaylaning qarshisidan chiqib qolishdi: chayla oldida yog'ochdan so'ri qilingan, so'rining bir chetiga o'ntacha qovoq terib qo'yilgandi.	Ağaçlığın bitiminde, onlar bir çeşit kamış çardak karşısına çıktılar. Çardağın önünde ahşaptan oturak vardı, çardağın bir kenarına on tane balkabağı koyulmuş idi.
1.81	Chayla bilan daraxtzor oralig'i yigirma qadam ham chiqmas, supada ularga orqa o'girib, so'ta sitgancha qandaydir qiz qo'shiq aytardi.	Çardak ile koru arası yirmi adım bile değildi, bankta onlara sırtı dönük, mısır koçanı şeklinde şarkı söylüyordu.
1.82	Qizning ovozi tiniq, hatto juda tiniq, ta'sirchan, shirali va maroqli edi.	Kızın sesi net, hatta çok net, etkileyici, tatlı ve ilgi çekiciydi.
1.83	U qo'shiqning eng yuqori pardasini ham qiynalmay, zo'rlanmay, tabiy va samimiy kuylardi.	O şarkının en üst perdesini güçlük çekmeden, zorlanmadan, doğal ve samimi bir şekilde söylüyordu.
1.84	To'rt hasharchi ham xuddi birov imo qilgandek birdan to'xtab qoldi.	Dört temizlikçi de sanki birisi işaret etmiş gibi aniden durdu.

1.85	Ular qo‘shiqning nazariy tomonlarini va ovozning qadrini yaxshi tushunardilar.	Onlar şarkının teorik yönlerini ve sesin değeriini çok iyi biliyorlardı.
1.86	Shu sababli qarshilaridagi qizga bir zum sehlranganday, bir oz ajablangandy qarab turishardi.	Bu yüzden karşılarındaki kıza bir an büyülenmiş gibi biraz da şaşkınlıkla baktılar.
1.87	Hatto eng mashhur hofizlar ham bu qo‘shiqning yuqori pardasiga kelganda bir oz kuchanishardi; qiz esa dugonasiga shivirloyotganday qiynalmay, ovoz maromini o‘zgartirmay pardadan-pardaga oshib o‘tardi.	Hatta en ünlü usta şarkıcılar da bu şarkının üst notasına geldiğinde biraz gerilirlerdi, kız ise bir dostuna fısıldıyormuş gibi ses tonunu değiştirmeden perdeden perdeye atlıyordu.
1.88	Uning ovozi so‘zlarni ham ohangga aylantirib yuborar, qiz qanotini ozod qoqib yurgan qushchaday, berilib qo‘shiq aytardi.	Onun sesindeki sözler de bir melodiye dönüşüyor, kız kanadını çırpan özgür bir kuş gibi şarkı söylüyordu.
1.89	Qo‘shiqdan hatto qizchanning duk-duk urayotgan yuragini ham eshitish mumkin edi.	Şarkıdan hatta küçük kızın hızlı çarpan kalbinin atışını da duymak mümkün idi.
1.90	Uning tovushidagi erkinlikka Shamsi Saloh birdan majoz topa oldi: tog‘ kiyigi cho‘qqidan-cho‘qqiga ana shunday sakrab yuradi, deb o‘yladi u.	Onun sesindeki özgürlüğe Şemsi Selah aniden bir mecaz buldu. Bir dağ geyiği tepeden tepeye işte bu şekilde atlayabilir, diye düşündü o.
1.91	Qiz ularni ko‘rmas, qo‘shig‘ining avjini o‘zgatirmay	Kız onları görmüyor, şarkısının doruk noktasını değiştirmeden bir

	bir paytning o'zida tez-tez so'ta sitrardi.	süre kendisi de hızlı hızlı mısır koçanı
1.92	Uning atrofida jo'xori doni uyulib ketgan, (uyilmoq) qizdan ikki qadam narida ikki-uch haftalik buzoq o'ynab yurardi, uning kechki quyoshda yaltirab ketayotgan junida va kichkina, chiroyli ko'zlarida ham qizning qo'shig'i jilvalanayotganga o'xshardi.	Onun etrafida mısır taneleri birikmişti, kızıdan iki mil uzaklıkta, iki üç haftalık bir dana oynuyordu, onun akşam güneşinde parıldayan kürkünde, küçük, güzel gözlerinde de kızın şarkısı parıldıyormuş gibi görünüyordu.
1.93	Bu juda go'zal manzara edi, buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina ko'rish mumkin, biroq eng zo'r musavvir ham uning qo'shig'iga bo'yoq, topolmagan bo'lardi.	Bu çok güzel bir manzara idi, bunu sadece usta ressamların resimlerinde görmek mümkün, ama en iyi sanatçının da onun şarkısına renk bulamayacağı bir sahneydi.
1.94	Qizning ovozida bani dunyo o'zaro uyg'unlashib jaranglar, go'yo xayol ham, go'zallik ham, orzu ham qizning qiyofasiga kirib qo'shiq aytardi.	Kızın sesinde tüm dünya karşılıklı olarak uyum içinde yankılanıyor, sanki hayal de güzellik de arzu da kızın kılığına girip şarkı söylüyordu.
1.95	Qo'shiqni tinglayotgan odam bahorni, yasharish faslini, sollanib turgan gullarni, shabadadan to'kilay-to'kilay deyayotgan qizg'aldoq bargidagi shudringni, tuman qoplab olgan bog'ni, varrak uchirayotgan	Şarkıyı dinleyen kişi, baharı, çiçeklenme mevsimini, sallanan çiçekleri, rüzgârdan döküle döküle gelincik yaprağındaki çiğ damlasını, sisle kaplanmış bahçeyi, uçurtma uçuran çocukların yükseklerde uçan,

	bolalarni yuksak-yuksaklarda parvoz qilayotgan, jilvalanayotgan bolalik xayolini ko'z oldiga keltirishi mumkin edi.	parıldayan çocukluk hayalini göz önüne getirmek mümkün idi.
1.96	Bolalik kabi go'zal, tiniq va orzumand bu ovoz quyoshning issiq taftidek o'z ohangi bilan odamni eritib yuborar, ko'ngilga yoqimli shabadaday esib kirardi.	Çocukluk gibi güzel, berrak ve istek dolu bu ses güneşin hararetli ısısı gibi kendi melodisiyle insanı eritiyor, kalbe hoş bir esinti gibi giriyordu.
1.97	To'rt hasharchi shunday taassurotlarni boshdan kechirar, ular qo'shiqni oxirigacha eshitmoqchidek dong qotib turishardi.	Dört ırgat da şöyle izlenimlerini düşünüyor, şarkıyı sonuna kadar dinlemek ister gibi ne yapacaklarını bilemeden öylece duruyorlardı.
1.98	Qo'shiq xayolni tortqilab, tortqilab olis-olislarga, xayolot, orzu, samimiyat va mo'jizalar gullab yotgan bolalik adirlari tomon olib qochardi.	Şarkı hayalleri çekip çekip çok uzaklara, düş, arzu, samimiyet ve mucizelerin yeşerdiği çocukluk tepelerine doğru götürdü.
1.99	U xasis dunyoning qo'yindan bu go'zal ohanglarni parcha-parcha qilib qo'porib olayotganday va jarohatlar bijg'ib yotgan qalblarga malham qilib bosayotganday edi.	O cimri dünyanın bağrından bu güzel melodileri parça parça çekip koparmış gibi yarası kötü kokmuş kalplere merhem olacakmış gibiydi.
1.100	To'rtta hasharchi daraxtzordan chiqaverishda to'xtab qolgan, go'yo qimir etsalar dunyoning	Dört ırgat korudan çıkarken de durmuşlar, sanki hareket etseler dünyanın büyük mucizesinden

	ulug‘ mo‘jizasidan quruq qolishadigandek, ko‘zlarini ham yummay turardilar.	mahrum kalacaklarmish gibi gözlerini de kırpmıyorlardı.
1.101	Bu ota-bobolardan meros qolgan, quvg‘in qilingan, qatl etilgan, yoqib yuborilgan, lekin oxir-oqibatda zulmlardan, qatlardan yana qayta tirilavergan, yana ham go‘zallashgan, ulug‘lashgan, zamonlar silsilasida osmonu falakdan yog‘ilgan in‘om kabi yana paydo bo‘lavergan va madaniy dunyoning mafkurasi bilan zaharlab tashlangan to‘rtta san‘at odamning qitig‘iga tegish uchun ularni bosib, yanchib o‘tib, yiroq-yiroqlarga oqib borayotgan, kechki shafaq qo‘ynida yanada ko‘proq tovlanayotgan xayolday go‘zal qo‘shiq edi; go‘yo zaminu zamonning, insonning azaliy orzularining bitta tori mana shu qizning chaylasidan o‘tganu, u qiz o‘zini tinglayotganlar o‘kirib-o‘kirib yig‘lasinlar, boshini toshga ura-ura behuda o‘tayotgan umrlariga armon qilsinlar, umrning g‘animat ekanligini, bu hayot odamga bir lahzaga berilganini anglasinlar, bir-biriga	Bu baba dedelerden miras kalan, sürgün edilen, katledilen, yakıp yıkılan ama sonunda zulümlerden, idamlardan tekrar tekrar dirilen, yeniden güzelleşen, yüceltilen, zamanlar silsilesinde gökyüzünden yağın bir armağan gibi yeniden ortaya çıkıyor ve kültür dünyasının ideolojisiyle zehirlenen dört sanat insanını sinirlendirmek için onları basıp, çiğneyip, uzaklara götürüyordu. Bu şarkı akşam şafağının koynunda daha çok parıldayan, rüya gibi güzel bir şarkı idi. Sanki dünyanın ve zamanın, insanın sonsuz hayallerinin bir teli işte şu kızın çardağından geçmiş, o kız kendini dinleyenler hıçkıra hıçkıra ağlasınlar, kafalarını taş vura vura boş geçen ömürleri için pişmanlık çeksinler, hayatın bir hazine olduğunu, bu hayatın insana bir anda armağan edildiğini anlasınlar, birbirlerine saygı göstersinler, birbirilerinden kaçıp ağlasınlar, benim de bu şarkıcının da ömrü bir anlık, ama bu şarkıcık sonsuz hissedilsin diye bu teli

	ta‘zim qilsinlar, bir-birini qochib yig‘lasinlar, mening ham, bu qo‘shiq aytuvchining ham umri bir lahza, faqat qoshiqgina abadiylikni his etsinlar deb, bu torni shafqatsizlik bilan qayta-qayta chertar edi...	acimasizlikla tekrar tekrar tıngırdatıyordu.
1.102	Mana bahor kelayapti.	İşte bahar geliyor.
1.103	Chechaklar bosh ko‘tarayapti, qizg‘aldoqlar qir-adirlar uzra qiyqirib, chopib yurishibdi, ana, qamish chayladan bolakay yugurib chikdi, u onasining po‘pisasiga qaramay, yomg‘ir sabalab o‘tgan maysalarga qiqir-qiqir qolganча ag‘nayapti, uning kulgusidan uyg‘onib ketgan dunyo porillab ochilayotgan g‘unchalarning ko‘zlari orqali tevarak-atrofga razm solayapti, dunyo g‘aflatdan uyg‘onayapti... bog‘larda ishonch, xavotir, orzu draxtlari gullayapti... bu o‘lkaga yana muhabbat qo‘shig‘i qaytdi...	Çiçekler baş kaldırıyor, gelincikler tepeler üzerinde haykırıp koşuyordu. İşte o kamış çardaktan küçük bir çocuk çıktı, o annesinin tehditlerine bakmayıp, yağmurun süpürdüğü çimenler üzerinde yuvarlanıyor, onun kahkahasıyla uyanan dünya, parlayıp açılan goncaların gözleri yoluyla etrafa bakıyor, dünya gafletten uyanıyor. Bahçelerde inanç, kaygı, istek ağaçları çiçek açıyor, bu ülkeye aşk şarkısı yeniden dönüyor.
1.104	...O, sen momoqo‘shiq!	Ah, sen büyükanne şarkısı!
1.105	Qalbimning muqaddas qo‘shig‘i.	Kalbimin kutsal şarkısı.

1.106	Sen bu biyobondan, bu mardumlar dilidan nelar izlab yuribsan?	Sen bu çölde, bu halkın dilinde ne arıyorsun?
1.107	Sen bu ruhlar qabristonidan nelar izlayapsan?!	Sen bu ruhlar kabristanında ne arıyorsun?
1.108	Bu odamlar yuzlarida sen izlayotgan ul shamlar allaqachon o‘chib bo‘lgan.	Bu insanların yüzünde aradığın o kandiller çoktan sönmüş.
1.109	Bu sahroda sen uyg‘otadigan narsa qolmagan.	Bu çölde seni uyandıracak hiçbir şey kalmadı.
1.110	O, bildim, sen bu yerlarga meni izlab kelsangan.	Ah, biliyorum, sen buralara beni aramaya geldin.
1.111	Mana, men, qancha siring bo‘lsa ayt.	İşte, ben, ne kadar sırrın varsa söyle.
1.112	Ko‘nglimdagi ul g‘olib tug‘larni ko‘tar.	Kalbimdeki o zafer tuğlarını kaldır.
1.113	O, meni o‘z o‘lkangga da‘vat et.	Ah, beni kendi ülkeneye davet et.
1.114	O‘liklar yurtiga qo‘shin izlab kelgan sarkarda qo‘shiq!	Ölüler diyarına ordusunu aramaya gelen komutan şarkısı!
1.115	O, balki, bu qo‘shiq, emas, qilichlar jarangidir?!	Ah, belki bu şarkı değil, kılıçların sesidir?
1.116	Yuragiga o‘q sanchilgan jangchining hayot va o‘lim haqidagi so‘nggi xulosasidir.	Yüreğine kurşun saplanan savaşçının yaşam ve ölüm hakkındaki son neticesidir.
1.117	O, sen, ulug‘ niyat qo‘shig‘i!	Ah, sen, ulu niyet şarkısı!

1.118	Mayli, yangra!	Peki, yksek sesle yankılan!
1.119	Mayli, zabt et!	Peki, fethet!
1.120	Meni o‘z ohangingga g‘arq qil!	Beni kendi melodine boĖ!
1.121	Mayli, meni kuyning kundasida qatl et!	Peki, beni melodinin iinde idam et!
1.122	Toki qabrim ham sening o‘lmas satrlaringda qolsin!..	yle ki mezarım da senin lmsz satırlarında kalsın!..
1.123	O, o‘lmas qo‘shiq kemasi!	Ey, lmsz řarkı gemisi!
1.124	Suz, suzaver!	Yz, yzver!
1.125	Ul olis diyorlardan menga tomon suzib kel, mening yuragimga langar tashla!	O uzak diyarlardan bana doĖru yzp gel, benim yreĖime demir at!
1.126	Men seni asrlar, yillar osha kutdim.	Ben seni asırlar, yillar boyunca bekledim.
1.127	Ul momo yurtlardan meni izlab kelishingni bilardim.	O ana yurtlardan beni aramaya geleceĖini biliyordum.
1.128	O, umid kemasi!	Ey, umut gemisi!
1.129	Suz, suzaver.	Yz, yzver.
1.130	Bu sahro uzra ulug‘vor yelkanlaringni yozib o‘t!	Bu l zerindeki grkemli yelkenlerini bırak!
1.131	Seni ko‘rib odamlar hali dunyoda go‘zallik va qo‘shiq mavjud ekanligiga ishonsinlar, seni kutib	Seni grnce insanlar hl dnyada gzellik ve řarkı olduĖuna

	olish uchun yuraklarining qirg'oqlariga chiqsinlar...	inansinlar, seni karřilamak iin gnllerinin kıyısına gitsinler.
1.132	Qiz qo'shig'ini tugatgan bo'lsa ham to'rttala hasharchi hamon unga hayrat bilan qarab turishardi — go'yo qo'shiq emas, hozirgina oldilaridan qizg'ish qanotli tulporlar chopib o'tganga o'xshardi: qo'shiqning davomini har biri o'zicha xayolida davom ettirayotgandek, bu dilgir ohangni tutib olib, ko'ksilariga bir umr qadab qo'yish uchun qo'shiq izidan dala uzra xayolan yugurib yurishgandek edi...	Kız řarkısını bitirmiş olsa da drt ırgat hl ona řařkınlıkla bakıyordu. Sanki řarkı deęil, az nce nlerinden kırmızı kanatlı kheylanlar gemiře benziyordu. řarkının devamını her biri kendi zihninde devam ettiriyormuş gibi bu hznl melodiye tutup mr boyu ilerine kazımak iin řarkının izini takip ederek tarlada hayali olarak kořuyorlarmış gibiydiler.
1.133	Eng birinchi bo'lib Ismoil Ali o'ziga keldi.	İlk olarak İsmail Ali kendine geldi.
1.134	Qo'shiq allaqachon oqshom qa'riga singib ketgandi, qiz esa jo'xorizorda donlab yurgan tovuqlarni katagiga qamash uchun hay-haylab, haylab yurardi; u xuddi qo'shig'i kabi suluv edi, — har qalay, uzoqdan suluv bo'lib ko'rinardi.	řarkı oktan akřamın derinliklerine inmişti, kız ise mısır tarlasında yemlenen tavukları kafeslerine sokmak iin baęırıp aęırıyordu. O tıpkı řarkısı gibi gzeldi, her nasılsa uzaktan gzel grnyordu.
1.135	Uning qizil chit ko'ylagi yugurayotgan paytda rostdan ham olislardan kelayotgan	Onun kırmızı pamuklu gmleęi kořtuęu anda gerekten de uzaklardan gelen bir geminin kızıl yelkenine benziyor, uuřuyordu.

	kemaning alvon elkaniga o'xshab, hilpirab ketardi.	
1.136	— Ovozi operettaga juda mos ekan, — dedi Ismoil Ali o'zini sal yig'ib olib, — faqat bir oz tarbiyalash zarur, lekin san'at olamini asir tushiradigan ovozi bor ekan.	— Sesi opera ichin chok uygun, dedi Ismail Ali kendini biraz toparlayarak, ancak biraz egitime ihtiyaci var ama yine de sanat dunyasini esir alacak bir sesi varmis.
1.137	Shamsi Saloh shamday qotib qolgandi: uning vujudida xotiralar, xayollar, tuyg'ular g'alayonga kelgandi.	Şemsi Selah bir mum gibi donmuştu. Onun bedeninde anılar, hayaller ve duygular başkaldırmıştı.
1.138	U keyingi paytlarda qo'shiq eshitib, o'zining hozirgiday hayajonlanganini hech eslay olmasdi, uning yig'lagisi kelardi, bo'g'zida toshday narsa tiqilib turar, borib u qizni quchgisi, rahmat aytgisi, oyog'iga yiqilgisi kelardi.	O son zamanlarda bir şarkı dinleyip kendisinin şu anki kadar heyecanlandığını hiç hatırlamıyordu, o ağlamak istiyor, boğazına taş gibi bir şey takılıyor, gidip o kıza sarılası, teşekkür edesi, ayaklarına kapanası geliyordu.
1.139	Balki keyinchalik u o'zining ushbu xolatini eslab kulib ham yurgandir, biroq hozir u shunday qilishga qodir edi, faqat boyagina dunyoning eng latif qo'shig'ini aytgan qozning qo'shiqqa mos bo'lmagan kelbatda tovuq quvlab yurishiga ajablanayotgan edi.	Belki daha sonra kendi durumunu hatırlayıp gülecekti ama şimdi o bunu yapabiliirdi. Sadece dünyanın en güzel şarkısını söyleyen kızın, şarkıya yakışmayan bir şekilde tavukları kovalamasına şaşırmıştı.

1.140	Go‘yo qo‘shiq aytgan qiz osmonu falakka uchib ketganu bu qiz esa faqat uning suvrati...	Sanki şarkı söyleyen kız gökyüzüne uçmuştu bu kız ise sadece onun görüntüsüydü.
1.141	Bu manzara unga juda qattiq ta’sir qildi.	Bu sahne onu çok fena etkilemişti.
1.142	U keyinchalik ham ushbu daqiqalarni tez-tez qo‘msar, sog‘inar, lekin buni oshkor qilishga istihola qilardi.	O daha sonra da bu anların sık sık hasretini çekiyor, özlüyor, ancak bunu aşıkâr etmeye çekiniyordu.
1.143	Shamsi Saloh hamrohlaridan yuz qadamcha orqada borar, xomush va parishon edi.	Şemsi Selah arkadaşlarından yüz adım geride üzgün ve perişan idi.
1.144	U shiyponga qarab burilishdagi beton ariqda ketmonini yuvayotgan sariq mo‘ylovli kishining salomiga alik olib, bosh iring‘ab o‘tib ketdi-da, so‘ng birdan iziga qaytib, ters so‘radi: Daraxtlar ichidagi chayla kimniki? — qo‘li bilan daraxtzor tomonga ishora qilib.	O çardağa dönünce beton hendekte çapasını yıkayan sarı bıyıklı adamı selamlayıp, başını sallayarak yanından geçti, sonra birden arkasına dönüp; — ağaçlar içindeki çardak kimin ki, diyerek eliyle koruya doğru işaret etti.
1.145	— Otaqulniki, brigadirniki, — dedi mo‘ylovli kishi unga qiziqsinib tikilib.	— Atakul’un, başkanın, dedi bıyıklı adam ona merakla bakarak.
1.146	Uning itoatkor, andishaparast chehrasida har doimgiday ehtirom paydo bo‘ldi va qaddini	Onun itaatkâr, düşünceli yüzünde her zamanki gibi saygı belirdi ve doğrulup şairin önünde eğildi.

	tiklab, shoirning oldida g'oz qotdi.	
1.147	Shamsi Saloh xo'mraygancha jim qoldi.	Şemsi Selah kaşlarını çatarak sessiz kaldı.
1.148	— Singlisi nima ish qiladi? — so'radi u yana.	— Kız kardeşi ne iş yapıyor, diye o tekrar sordu.
1.149	— Qanday singlisi? — suvchi unga endi ajablanib tikildi.	— Nasıl kız kardeşi? Denizci adam ona şaşkınlıkla baktı.
1.150	Keyin dona-dona qilib, — Otaqulboy onadan bitta! — dedi.	Sonra tane tane, Atakul Bey anadan bir tane! dedi.
1.151	Nimanidir o'ylab, ko'zlaridagi savol to'satdan yo'qolib, birdan topishmoqning javobini topgan bolanikiday shodon uchqun paydo bo'ldi.	Bir şey düşünürken, gözlerindeki soru aniden kayboldu, birdenbire bir bilmecenin cevabını bulan bir çocuğunkine benzer bir sevinç kıvılcımı parladı.
1.152	— E, ha, kelinni aytyapsizmi?	— E, evet, gelini mi kastediyorsunuz?
1.153	Shamsi Saloh sal oldin negadir Qishloq xo'jaligini bitirgan ekanmi? — deb so'ragan yuvvoshgina brigadirni esladi, yuragi g'ashlandi, suvchining savoliga javob ham bermay, xo'mraygancha shiyponga qarab yo'l oldi.	Şemsi Selah biraz önce ne hikmetse tarım bölümünü mü bitirmiş, diye sordu ve ağırbaşlı başkanı hatırladı, kalben rahatsız oldu, denizcinin sorusuna cevap da vermeden, kaşlarını çatarak çardağa doğru yöneldi.
1.154	Suvchi bu salobatli odamning nega Otaqulning xotinini ataylab	Denizci bu görkemli adamın neden Atakul'un karısını bilerek sorduğunu

	so‘raganiga aqli yetmay, izidan ajabsinib qarab qoldi.	anlamadi, ardından ona şaşkınlıkla bakıverdi.
2.1	Tong payti samovarchi tashqarida taqur-tuqur qilib yurganda u o‘zidan-o‘zi o‘yg‘onib ketdi, xurillab, beozorgina uxlab yotgan hamxonalariga birpas tikilib turdi-da, kiyinib sekin tashqariga chikdi: tong oqara boshlagan edi, shundagina u ko‘l bo‘yiga borib, quyosh chiqishini kuzatmoqchi bo‘lganini esladi.	Sabah vakti semaverci dıřarıda takur tukur yürüdüğü zaman o kendi kendine uyandı, horlayarak, uyuyan oda arkadaşlarına bir süre baktı, giyindi ve yavaşça dıřarı çıktı. Şafak vaktiydi, o göl kıyısına varıp, güneşin doğuşunu izlemek istediğini hatırladı.
2.2	Tun qaylargadir uchib ketish uchun dalalar ustidan asta sekin qanotlarini yig‘ib olayotgan edi.	Gece bir yere uçmak için tarlaların üzerinden yavaşça kanatlarını topluyordu.
2.3	Kechasi bilan tun mulkiga poyloqchilik qilib chiqqan oy shami ham endi yer yuzini yoritishga ojiz ekanligini pilpillay-pilpillay so‘na boshlagandi.	Akşam ile gecenin var olmasını pusuda bekleyen ay ışığı da şimdi yeryüzünü aydınlatmada yetersiz kalacakmış gibi titremeye başladı.
2.4	U sahro tongining salqin havosidan entikib ketdi; bu tongda va bu dalalarda unga yot bir yovvoyi g‘urur to‘shalib yotardi, ular sirlarini hech kimga bermogchi emasdek yoqi qandaydir xavfni kutib, dong	O çöl şafağının serin havasından zor soluyordu, bu şafakta ve bu tarlalarda ona yabancı, yabani bir gurur yayılıyordu, onlar sırlarını hiç kimseye vermek istemiyormuş gibi herhangi bir tehlike bekleyip, sanki

	qotib qolishgandek, sirli tarzda hurpayib, olishgandi.	donmuşlar gibi enteresan bir şekilde korkunç görünüyorlardı.
2.5	Tong olis-olislarda ko‘rinayotgan qishloqlarda o‘zining tirikchilik qo‘shiqlarini boshlab yuborgan, pastqam qirlar ustida shafaq tug‘day hilpirar, dalalar uzra osoyishta sokinlik hukm surardi.	Şafak, çok uzaklarda görünen köylerde kendi geçim kaynağı olan şarkılarını söylemeye başlar, ıssız tepeler üzerinde şafak söker gibi çırpınır ve tarlalar üzerinde huzurlu bir sessizlik hüküm sürerdi.
2.6	Shabada egatlar ichidan g‘o‘zalarni qitiqlab, kuldirib chotib o‘tardi.	Esinti saban izlerinin içindeki pamuk tomurcuklarını gıdıklıyor, güldürüyordu.
2.7	Shamsi Saloh egat oralab borar, oyoklari ostida barglar shitir-shitir ezilardi.	Şemsi Selah saban izlerinin etrafında geziyor, ayaklarının altında yapraklar hışırıyordu.
2.8	Ba‘zan g‘o‘zalab uning sharpasidan hurkkandek, qaltirab ketardi, u o‘ziga ko‘pdan buyon begona bo‘lib qolgan, qandaydir dard va og‘riq bilan to‘lg‘onib yotgan bu zaminni tinglagisi kelardi.	Bazen pamuk tomurcukları onun gölgesinden ürkmüş gibi titriyor, o kendine uzun zamandan beridir yabancı olduğu, herhangi bir hüznün ve acıyla dolup taşan bu toprağı dinlemek istiyordu.
2.9	Alamli, shapoloqday-shapoloqday yuzlari sarg‘aya boshlagan, mahzun turishlari va mungli qarashlari bilan sharq ayollariga o‘xshab ketadigan,	Hüzünlü, yüzleri solmaya başlayan mahzun duruşları ve hüzünlü bakışları ile doğu kadınlarına benzeyen, sabah serinliğinde

	tonggi salqinda kelinchakdek titrab turgan bu g'ozalar nelar demokda?	gelincik gibi titreyen bu pamuk tomurcuklar da neyin nesi?
2.10	Nega ular bunchalik bezovta, bunchalik ruhsiz, bunchalik so'lg'in?	Niçin onlar bu kadar huzursuz, bu kadar ruhsuz, bu kadar solgunlar?
2.11	Kaftlariga mitti quyoshchalardek umid tolalarni ko'tarib olgan va ichiga oralasang izingdan norozidek shitirlab, javrab qoladigan, keng dalada yastanib yotgan go'zallarning namoyishimi bu?	Hurma ağaçlarına minik güneşcik gibi bir ümit tarlaları uzanmış ve içine girdiğinizde ayak seslerinizden rahatsız olmuş gibi hışırdayan, buz kesilen, geniş tarlada yatan güzellerin gösterisi mi bu?
2.12	Yoki tuproq ostida qovjirab yotgan ota-bobolarning falakka o'qталgan mushtlarimi bu?	Yoksa toprağın altında yatan baba dedelerinin dünyayı tehdit ettikleri yumruklar mı bu?
2.13	Agar razm solib qarasang, seni g'ozalar emas, sonsiz, tahlikali lashkarlar o'rab turganini ko'rasan.	Eğer dikkatli bakarsan, etrafının pamuk tomurcuklarıyla değil, sayısız, tehlikeli ordularla çevrili olduğunu görürsün.
2.14	Nechun, nechun bu lashkarlar qurbonlikka mahkum etilgan?	Niçin, niçin bu ordular ölüme mahkûm ediliyor?
2.15	Ularning bunchalik g'azabga keltirgan narsa nima?!	Onları bu kadar hiddetlendiren şey nedir?
2.16	U qanday kuch, qanday johillik?! bu g'o'zami, yo isyonmi?!	O nasıl güç, nasıl cehalet? Bu bir pamuk tomurcuğu mu yoksa isyan mı?

2.17	Shamsi Saloh uzoq-uzoqlarga boqdi va nechundir olis-olislariga cho‘zilgan paxta dalasini yig‘lab yotgan o‘xshatdi, yo‘q, yo‘q, balki qo‘shiq aytayotgan ayolga o‘xshar.	Şemsi Selah uzaklara daldı ve nedendir bilinmez çok uzak diyarlara uzanan pamuk tarlası ağılıyormuş gibi görünüyordu, hayır, hayır, belki de şarkı söyleyen bir kadına benziyor.
2.18	Agar g‘o‘zalar ham kuylaganda qanday qo‘shiq aytgan bo‘lardi?	Eğer pamuk tomurcukları da şarkı söyleseler nasıl söylerlerdi?
2.19	Yoki anavi kelinchakka o‘xshab (kelinchak ekanini u kecha bilib olgan edi) momolar qo‘shig‘ini aytarmidi va bu qo‘shiqni u tushuna olarmidi?	Ya da işte o gelinciğe benzeyen (gelin olduğunu o dün öğrendi) büyükanne şarkısını söyler miydi ve bu şarkıyı o anlayabilir miydi?
2.20	To‘g‘ri, kechagi qo‘shiqda ham bir muncha dag‘allik bor edi, lekin uni baribir hayajonga soldi, bag‘rini titratib yubordi-ku; u o‘zini san‘atning billur qoyasiga chiqib oldim, hamma narsani endi shu qoyadan ko‘raman deb o‘ylardi.	Doğru, çünkü şarkıda da biraz pürüz vardı ama onu aynı şekilde heyecanlandırıyordu, yüreğini titretiyordu, o kendisini sanatın billur kayasına çıkardığını ve her şeyi şimdi şu kayadan görebilirim diye düşünüyordu.
2.21	Lekin kechagi qo‘shiq to‘satdan yerga tortib tushirdi; uning qalbida nafis tashbehlar ostida ko‘milib qolgan unut xotiralarini yuzaga chiqardi, — bu qo‘shiq emasmi, axir, bu go‘zallik emasmi?	Ancak çünkü şarkı aniden yere düştü, onun yüreğinde benzetmeler altındaa gömülüp unutulmuş anıları ortaya çıkardı. Bu şarkı değil mi, sonuçta, bu güzellik değil mi?

2.22	Shamsi Saloh baribir ich-ichidan buni tan olgisi kelmadi, agar tan olsa, o‘zi kulib yuradigan “yaltiroq” romanlarning qahramoniga aylanib qoladigandek ko‘nglida bir o‘jarlik uyg‘ondi.	Şemsi Selah her şeye rağmen içten içe bunu kabul etmek istemiyordu, eğer kabul ederse, kendi güldüğü "ışılıtlı" romanların kahramanına dönüşecekmiş gibi içinde bir inatçılık uyandı.
2.23	Shamsi Saloh tund, biroz oliftaroq, jimjima narsaga o‘ch, biroz kibrliroq, hamma narsaning go‘zal bo‘lishini istovchi va hamisha shunga intiluvchi, hashamli va jilvali narsalarni sevuvchi, har bir manzaraning nihoyatda zebo tomonlarini ko‘ra oluvchi, nafis tashbehlarga ustasi farang, yashashi va kiyinishida ham o‘ta ziyolilik barq urib turuvchi kishi edi; u hayotga ham, tebarak-atrofiga ham mana shu nozik ziyolilik ko‘zaynagi bilan qarardi.	Şemsi Selah karanlıktır, biraz gösterişli, süslü şeylere aç, biraz kibirli, her şeyin güzel olmasını ister ve daima bunun için çabalar, süslü ve ışıldayan şeyleri sevmek ister, her sahnenin en güzel yönlerini görmek ister, zarif imaların ustası olan, yaşaması ve giyinmesi konusunda da son derece eğitimliliği belli olan bir insandı. O hayata da çevresine de işte bu aydınlılık gözlüğüyle bakardı.
2.24	Paxta dalasidan uning ko‘ngliga og‘ir taassurot cho‘kkan edi, go‘yo uning hislari, sevgilari birdan gung bo‘lib qo‘lgandek edi, u bunday kayfiyat bilan hech narsa yozolmasligini yaxshi bilardi.	Pamuk tarlası onun gönlünde ağır bir izlenim yaratmıştı, sanki onun duyuları, hisleri bir anda susturulmuş gibiydi, o böyle bir ruh hali ile hiçbir şey yazılmayacağını çok iyi bilirdi.

2.26	Sal narida atrofini qamish o‘rab olgan ko‘l ko‘rindi, shabada uning dimog‘iga balchiq hidini olib keldi.	Biraz ileride etrafı sazlıklarla çevrili bir göl görüldü, esinti onun burun deliklerine çamurlu su kokusu getiriyordu.
2.27	Ko‘l ham qurib qolgan siyohdonday unda diqqinafas taassurot uyg‘otdi.	Göl de kuruyup kalan mürekkep kabı gibi onda boğucu bir etki bırakmıştı.
2.28	Shunda u kechagi qo‘shiqni esladi, bu dala, bu ko‘l, bu manzaralar o‘sha qo‘shiqning mahzun baytlari emasmi?	Böylece o dünkü şarkıyı hatırladı, bu tarla, bu göl, bu manzaralar o şarkının hüznü dizeleri değil mi?
2.29	Xuddi qorong‘u xonaga lop etib quyosh nuri tushganday uning xufton ko‘nglining bir chetida qandaydir yorqin siymo unga avvaliga notanish tuyuldi, so‘ng qo‘shiq aytayotgan kelinchakni esladi-yu, yuzi yorishib ketdi.	Tıpkı karanlık bir odaya ansızın giren güneş ışığı gibi geceleri onun üzgün kalbinin bir köşesinde duran parlak sima ona ilk başta yabancı geldi, sonra şarkı söyleyen gelinciği hatırladı, yüzü aydınlanıverdi.
2.30	Qanday ayol, u, nazari bog‘u eram gullariga ham tushishi qiyin bo‘lgan bu odamni o‘ziga g‘oyibona chorlayotgan?	Nasıl bir kadın o, gördüğü cennet bahçesi çiçeklerine bile âşık olması zor iken, bu adamı kendine nasıl tuhaf bir şekilde çekiyor?
2.31	Nega uning ayolga baayni go‘zal tashbeeday, bunchalik ishq tushib qoldi?	Neden bu kadar güzel bir kadına âşık olmuştu?

2.32	Ehtimol, uning eng go‘zal tashbehi ham shu kelinchak bo‘lar?	Belki, onun en güzel şeyi de bu gelincik olacak?
2.33	Ko‘l atrofi etni junjiktiradigan darajada salqin edi va undan sasigan baliq hidi kelardi; endi hech narsani o‘zgartirib bo‘lmasdi, ko‘z oldidagi qurum manzaralarning ma‘nisi yo‘qolgandi.	Gölün çevresi tüyler ürpertici derecede serindi ve oradan kötü bir balık kokusu geliyordu. Şimdi hiçbir şey değiştirilemezdi, göz önündeki sahnelerin anlamı kaybolmuştu.
2.34	U bu yerlarni kun uzog‘i kezsa ham o‘zi izlagan narsalarni topa olmasdi.	O buraları uzun süre dolaşsa da kendi aradığı şeyi bulamadı.
2.35	Umuman, bu yerlardan nima izlayotganini uning o‘zi ham yaxshi bolmasdi.	Genel olarak buralarda ne aradığını onun kendisi de iyi bilmiyordu.
3.1	U kelgan yo‘lidan yana iziga qaytdi.	O geldiği yerden tekrar yoluna döndü.
3.2	U Muazzamni uch kundan so‘ng yana o‘sha qamish chayla oldida uchratdi.	O Muazzam ile üç gün sonra tekrar kamış çardağın önünde buluştu.
3.3	Shunday, qoshiqchi juvonning oti Muazzam edi, u endigina yigirma birga kirgan, muallimlar bilim yurtini tugatgan — lekin orada bola bo‘lib qolgani va Otaqulni sovxozning chekkasiga brigadir qilib tayinlaganliklari	Demek şarkıcı gencin adı Muazzam idi, o şu anda yirmi bir yaşına yeni girmiş, Öğretmenler Bilim Okulu’ndan mezun olmuş ama orada çocuk olduğu için ve Atakul’u sovhöz yerine başkan olarak tayin ettiklerinden dolayı işi öğrenmesi

	uchun ishga oʻrnasha olmagan, mana ikki yildan beri olti-yetti oyi shu yerda, koʻrimsiz chaylada oʻtar edi.	ichin, ishte o iki yildan beri altı ila yedi aydır burada, bakımsız bir çardakta yaşıyordu.
3.4	U bir oz mustarlikka moyil, ta'sirchan, ancha ziyrak kelinchak edi.	O biraz alınganlığa meyilli, etkileyici, çok akıllı bir gelin idi.
3.5	Otaqul haftalab uyga bormay, shiyponda yotib qolavergach, issiq-sovugʻidan xabar olib turish uchun u maktabda dars berish istagini ham tashlab, mana shu chaylaga koʻchib kelgan edi.	Atakul haftalarca evine gitmeyip, çardakta uyuyup kalınca, sıcak ve soğuktan haber almak için o okulda öğretmenlik yapma isteğini de bırakıp işte şu çardağa taşındı.
3.6	Bu yıl bolasi uch yashar boʻlib qolgani tufayli uni qishloqqa, qaynonasining qoʻliga tashlab kelgan, oʻzi esa eri bilan besh oydan beri dalada edi.	Bu yıl çocuğu üç yaşına bastığından dolayı onu köye, kayınvalidesinin yanına bıraktı, o ise kocasıyla beş aydan beridir tarlada idi.
3.7	Xoʻsh, u hakda yana nima deyish mumkin, darvoqe, u rostdan ham juda suluv edi.	Sonra, onun hakkında başka ne söylenebilir, sahiden, o gerçekten de çok güzeldi.
3.8	Uni koʻrgan odam koʻklam paytidagi qirish eslardi; unda hamma narsa oddiy va shu bilan birga allanechuk mahobatli edi; bir paytlar maktabining yarmi unga xushtor boʻlgan, lekin hech kim oʻylamagan va kutmagan	Onu gören kişi ilkbahar zamanlarını hatırlardı, onda her şey özgün ve bununla birlikte tuhaf bir şekilde görkemli idi. Bir zamanlar okulunun yarısı ona hayranken, ama hiç kimsenin düşünmediği, beklemediği bir gençle aniden evlenmişti.

	yigitga to'satdan turmushga chiqib ketgandi.	
3.9	Uning qo'shiq aytishini hamma bilar, biroq hech kim uning Shamsi Saloh ich-ichidan e'tibor etayotgandek qo'shiq uchun tug'ilganini bilmasdi; qishloqdoshlari uni to'ylarning guli deb bilar, qiz uzatish ziyofatlarini usiz tasavvur qilolmas, biroq hech kim shu paytgacha uni qo'shiq uchun tug'ilgan deb aytgan emasdi.	Onun şarkı söylediğini herkes biliyordu ama hiç kimse onun Şemsi Selah'ın içten içe dikkat ettiği gibi şarkı söylemek için doğduğunu bilmiyordu. Köylüleri onu düğünlerin çiçeği olarak görür, bekarlığa kız verme törenleri onsuz düşünülemezdi ama hiç kimse bu zamana kadar onun şarkı söylemek için doğduğunu söylememişti.
3.10	Umuman, u suluv juvonlarga ato etiladigan barcha fazilatga ega edi.	Genel olarak o, güzel gençlere bahşedilen tüm erdemlere sahipti.
3.11	O'ta sodda va ko'ngli bo'sh edi, vujudidan qishloq kesagining isi kelib turardi.	Çok basit ve kalbi boş idi, vücudundan köy keseği dumanı kokusu geliyordu.
3.12	Shamsi Saloh unda favqulodda bir iqtidorni sezmoqda ediki, bu sezgisi o'ziga ham huzur bag'ishlardi.	Şemsi Selah onda olağanüstü bir yetenek olduğunu hissediyor, bu sezgi kendisine de huzur veriyordu.
3.13	U Muazzamni uch kundan so'ng chayla oldida paxta terib yurganda uchratdi.	O Muazzam'la üç gün sonra çardağın önünde pamuk toplarken karşılaştı.

3.14	Muazzam yarim etak paxtasini elkasiga tashlab, chaylaga qarab, sekin yurib kelardi.	Muazzam yarim etek pamuğunu omuzlarına atıp, çardağa bakarak, yavaşça yürüyüp keldi.
3.15	Kun tushga yaqinlashgan, havo dim edi.	Gün öğlen vaktine yaklaşıyordu, hava boğucu idi.
3.16	Hasharchilar allaqachon balandroq sersoya g'ozalarning tagiga cho'zilishgandi.	Irgatlar çoktan uzun gölgelik pamuk ağaçlarının altına uzanmışlardı.
3.17	Shamsi Saloh Muazzamni juda yaqindan, uch qadamcha beridan ko'rdi-yu, yuragi birdan gursillab ura boshladi.	Şemsi Selah Muazzam'ı çok yakınında, yaklaşık üç adım ötede gördü, kalbi aniden güm güm çarpmaya başladı.
3.18	U qishloq ayoli shunchalik barno bo'ladi deb hech o'ylamagandi.	O köy kadınının bu kadar güzel olabileceğini hiç düşünmemişti.
3.19	Shamsi Salohni ayolning yuzidagi balqib turgan suluvlikdan ham ko'ra undan taralayotgan, o'ziga yarashgan ayollik malohati lol qoldirdi.	Şemsi Selah kadının yüzündeki ışıldayan güzelliğe nisbeten ondan yayılan, kendine has kadınlık cazibesi karşısında dili çekildi.
3.20	Kelinchakning yuzida osudalik, iztirobga o'xshash bezovtalik, nedandir norozilik hislari o'ynoqlardi.	Gelinciğin yüzünde durgunluk, ıstıraba benzeyen huzursuzluk, nedeni bilinmeyen bir hoşnutsuzluk hissi vardı.
3.21	Shamsi Salohga oldidan to'g'ri behishtdan chiqqan huru g'ilmon o'tib ketganday tuyuldi.	Şemsi Selah'a öncelikle cennetten çıkan huri ve gılman gibi

3.22	Kelinchak o'tib ketishi bilan Shamsi Salohning nazarida hamma narsaning ismi yo'qoldi, dalaning ham, osmonning ham g'o'zalarning ham, dim havoning ham, barcha ismni kelinchak o'g'irlab ketgan edi.	Gelinin gidişi ile Şemsi Selah'ın gözünde her şeyin adı yok oldu, tarlanın da gökyüzünün de pamuk tomurcuklarının da boğucu havanın da herşeyin adı gelin tarafından çalınıp gitti.
3.23	Shamsi Saloh qo'lga tushgan o'ljani qo'yib yuboradigan noshudlardan emasdi.	Şemsi Selah ele geçirilen avı bırakan, işe yaramazlardan değildi.
3.24	U darrov o'zini tutib oldi; yaqinroqda paxta terayotgan farrosh juvonlarni suv ichib kelishga taklif qildi.	O hemen kendini tuttu, yakınlarda pamuk toplayan temizlikçi gençleri gelip su içmeye davet etti.
3.25	Juvonlar etaklarini qarta chetiga qo'yishib, Shamsi Saloh bilan chaylaga qarab jo'nashdi.	Gençler eteklerini tarlanın kenarına koyup Şemsi Selah ile kamelyaya doğru yöneldiler.
3.26	Doimo hasharchilar bilan o'ralashib, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib, suv-puvidan xabar olib yuradigan Otaqul yaqin-atrofdan ko'rinmasdi, bu ayni muddao edi.	Daima ırgatlar ile çevrilen, onlara yol gösteren, su ile ilgili haberler taşıyan Atakul ortalıkta görünmüyordu, bu aynı zamanda bir temenni idi.
3.27	Shamsi Saloh barcha tajribasini ishga solib, kelinchak bilan tanishishga harakat qilmoqchi bo'ldi.	Şemsi Selah tüm tecrübesini kullanarak gelincikle tanışmak için harekete geçmek istedi.
3.28	Biroq, uning "tajribalari"ni ishlatishga hojat ham qolmadi,	Ancak onun "tecrübelerini" kullanmasına gerek de kalmadı, su

	suv ichib bo‘lgan juvonlarning nariroq ketishi va vaqt o‘tkazish uchun yog‘och do‘lchada iloji boricha ko‘proq va uzoqroq suv ichishga harakat qilayotgan Shamsi Salohga suv uzatib turgan Muazzam birdan: — Siz yozuvchimisiz, — deya so‘rab qoldi, uning ko‘zlarida hayrat, qiziqish balqib turardi.	içen gençlerin uzağa gitmesi ve vakit geçirmek için ahşap kâsede mümkün olduğunca daha çok ve daha uzun süre su içmeye çalışan Şemsi Selah'a su uzatan Muazzam birdenbire: — Siz yazar mısınız, diye soruverdi, onun gözleri şaşkınlık ve ilgi içerisinde parlıyordu.
3.29	— Hech ham tirik yozuvchini uchrataman deb o‘ylamagandim.	— Hiç yaşayan bir yazarla karşılaşacağımı düşünmemiştim.
3.30	Yog‘och hidi o‘tgan suvni yutishni ham, yutmaslikni ham bilmay turgan Shamsi Saloh qilt etib yutindida, o‘ziga ehtirom bilan tikilib turgan chiroyli ko‘zlarni ko‘rgach, nima deyarini bilmay jilmaydi.	Ahşap kokulu suyu yutup yutamayacağını da bilemeyen Şemsi Selah yutkunurken kendisine saygıyla bakan güzel gözleri görünce ne diyeceğini bilemeden gülümsedi.
3.31	Bu kelinchak tushmagur, shu darajada yoqimli, shu darajada ofatijon va dilbar ediki, uni bu chuchmal, yer hidi kelib turgan suvga qo‘shib ichib yuborging kelardi, vo darig‘, bu kelinchakning kuydirma jonligidan do‘lchadagi suv ham limmolim qaynab ketgan, bu suvni ichgan ham dunyoga qo‘l	Bu kör olmayasıca gelin, o kadar tatlı, o kadar çekici ve dilber idi ki, onu bu lezzetsiz, toprak kokusu gelen suya ekleyip içmek isterdiniz, vah yazık, bu gelinin canının yanmasından kâsedeki su da kaynayıp taşar ve bu suyu içen de her şeyden vazgeçerek deli olur muydu?

	siltab, hayu, hayt, — deb telba bo‘lib o‘tgan bo‘larmidi?	
3.32	— Kaminaning boshiga shunday baxtsizlik tushgan, — dedi u bir oz jimjima bilan.	— Kulun başına şöyle bir talihsizlik geldi, dedi o, biraz sessizce.
3.33	— Boy, nega unday deysiz, — Muazzamning ko‘zlarida birdan ajablanish paydo bo‘ldi.	— Bayım, neden öyle söylüyorsunuz. Muazzam’ın gözleri bir anda şaşkınlıkla doldu.
3.34	— Men eng baxtli odamlar yozuvchi bo‘ladi deb o‘ylayman.	— Ben en mutlu insanlar yazarlardır diye düşünüyorum.
3.35	U juvonnig soddaligidan ichida huzur qildi, hozirgina qo‘l uzatsa yetmaydigandek tuyulgan omad qushining juvonning iffat to‘la ko‘zlari orqali o‘ziga hayrat bilan boqib turganini ko‘rish huzurli edi.	O gencin sadeliği içine huzur verdi, az önce el uzatsa ulaşılmaz gibi görünen talih kuşunun, genç kadının iffet dolu gözlerle kendine şaşkınlıkla baktığını görmek hoş idi.
3.36	— Ishqilib men bu baxtni hech kimga ravo ko‘rmasdim, — dedi iloji boricha o‘zini sirliroq qilib ko‘rsatish uchun.	— Ne olursa olsun ben bu mutluluğu hiç kimseye reva görmezdim, dedi çaresi varsa, kendini olabildiğince gizemli göstermek için.
3.37	U chiroyli ayollar sirli kishilarga ko‘proq moyil bo‘ladilar deb qayerdadir o‘qigandi.	O güzel kadınların gizemli kişilere daha çok meyilli olduğunu bir yerlerde okumuştı.
3.38	Oraga birdan sukunat cho‘kdi.	Oraya aniden sessizlik çöktü.

3.39	Muazzam unga nima deb javob berishini ham bilmay, qizarib ketdi.	Muazzam ona ne cevap vereceğini bilmeden kızarıverdi.
3.40	Shamsi Salohning otgan birinchi o'qi nishonga tekkan edi, Muazzam shafqat va samimiyat aks etgan ko'zlarini unga tikib turardi.	Şemsi Selah'ın ilk atışı hedefi vurdu, Muazzam şefkat ve samimiyet dolu gözlerle ona bakıyordu.
3.41	— Qovun eysizzmi? — deb so'radi u keyin shoshib chaylaga taklif qilar ekan, — voy, meni qarang, kiring ham demabman.	— Kavun yer misiniz? diye sordu o sonra aceleleyle çardağa davet etti, — vay, bana bakın, içeri girin demiyorum.
3.42	Kiring, mana, o'zingiz tanlab oling.	Girin, işte burada, kendiniz seçin.
3.43	Shamsi Saloh ichkariga kirdi-yu, eski-tuski ko'rpayostiqli, sholchalarni, qop-qora choyidishni, siri ko'chib qolgan kosalarni, qovun shirasidan dog'-dug' bo'lib qolgan dasturxonni, chaylaning to'riga terib qo'yilgan qovun-tarvuzlarni, suv sepib supirilaverganidan bo'lsa kerak, chang hidi tutgan hujrani va bu xunuk idishlarga, balchiq ichida o'sgan guldek yuzidan hayot shavqi taralayotgan Muazzamni o'zining hamishagi nafis ko'zoynagi bilan kuzatib chiqdi:	Şemsi Selah içeri girdi ve eski döşegi, kilimleri, simsiyah çaydanlığı, rengini kaybetmiş kâseleri, kavun suyunun şekerinden lekelenmiş masa örtüsünü, kamelyanın toruna toplanmış kavun ve karpuzları, su serpildiğinden olsa gerek, toz kokusu sarmış odayı ve bu çirkin kâselere, çamur içinde büyüyen bir çiçek gibi yüzünden yaşama sevinci saçan Muazzam'ı her zamanki nefis gözlükleriyle izliyordu. Gözünün önündeki o harabe kamelya ve kendi şarkısından da güzel olan Muazzam başka bir

	nazarida ko‘z oldida turgan xarob chayla va o‘zining qo‘shig‘idan ham go‘zalroq Muazzam boshqa- boshqa dunyoda turganday, yoxud boshqa-boshqa dunyo uchun tug‘ilganday tuyuldi unga.	dünyada yaşıyormuş ya da başka bir dünya için doğmuş gibi geliyordu ona.
3.44	U o‘sha kuni dunyodagi eng baxtiyor ayolday qo‘shiq aytgan kelinchakni mana shu vaziyatda, shunday ayanch narsalar qurshovida uchrataman deb, sira o‘ylamagandi.	O, işte o gün dünyanın en mutlu kadını gibi şarkı söyleyen gelini bu konumda, bu kadar utanılası şeyler arasında göreceğini hiç düşünmemişti.
3.45	Chaylada hamma narsa betartib sochilib yotar, u odam yashadigan joydan ko‘ra, ko‘proq tovuq katagiga o‘xshardi, bu yerda hamma narsa qo‘pol, ko‘rimsiz, xunuk va omonat edi.	Çardakta her şey dağınıktı, orası insan yaşayan bir yere kıyasla daha çok tavuk kümesine benziyordu, buradaki her şey kaba, çirkin, kötü ve emanet idi.
3.46	U mana shu qora turmushning baxtsiz asoratini izlab Muazzamning ko‘zlariga tikildi, biroq bu ko‘zlar Shamsi Salohga noma‘lum bo‘lgan baxtdan yayrab turar, o‘zidan baxtsizlik izlayotgan sovuq ko‘zlarga yal- yal yashnab boqardi.	O işte şu kara evliliğin talihsiz esaretini ararken Muazzam‘ın gözlerine baktı, ama bu gözler Şemsi Selah‘ın bilmediği bir mutlulukla parlıyor, kendisinde mutsuzluk arayan soğuk gözlere ısıl ısıl bakıyordu.
3.47	Bu ko‘zlarning qirlarida goho tole ohulari yugurgilab qolardi va	Bu gözlerin kenarlarından kâh ahu gözlerden mutluluk gözyaşları akar

	atrofga xijolat — hayo aralash saodat ellari taralardi.	ve etrafa utançla mahçubiyet karışık mutluluk elleri yayılırdı.
3.48	Tikilib-tikilib qarasang, bu qorachiqlar supasida qora libos kiygan sehrgar o'tirganini ko'rarding, sehrgar o'ziga tez-tez josusona nigoh tashlayotgan anchayin sur ko'zlarga goho ajablanish, goho hayrat tuzoqlarini qo'yardi, goh o'zining jimitdaygina sahnasiga qoq suyak, xo'mraygan yuzining suratini chizardi; goh bu kichkina saltanatga bostirib kirmoqchi bo'layotgan ayg'oqchi nigohlarni taxdidona muzaffarlik bilan qarshi olardi va o'zining shu taxlit tilsimona o'yinlari bilan har qanday baxt va baxtsizlik haqidagi tushunchalardan yuksoqda turishini isbot etmoqchi bo'lardi.	Dikkatlice bakarsan bu siyahımsı kilden yapılmış bankta siyah elbise giymiş bir sihirbazın oturduğunu görürdün, sihirbaz kendisine sık sık casusane bakışlar atıp önemsemeyerek, utanmaz gözlere kâh hayran kalıyor, kâh şaşkınlık tuzakları kuruyordu, bazen kendisinin sessiz sahnesiyle alay eder, kemikli, çatık kaşlı yüzünün resmini çizerdi, bazen de onun kırmızı yüzünün, bazen bu küçük krallığa girmeye çalışan bir casus, bakışları muzaffer bir bakışla karşılar ve kendisinin bu sahte sihir oyunları ile mutluluk ve mutsuzluk kavramlarının üstünde olduğunu kanıtlamaya çalışırdı.
3.49	Yo'q, yo'q, bu ko'zlarda sehrgar emas, oybolta ko'targan jallod o'tirardi, u bu mulk devorlaridan xufyona oshib o'tmoqchi bo'lgan o'g'ri qarashlarni ayvoni sahnasida o'kirtib-o'kirtib qatl etardi...	Hayır, hayır, bu gözlerde bir büyücü değil, kasap baltası taşıyan bir cellat otururdu, o bu mülkün duvarlarından gizlice aşmaya çalışan hırsız bakışlarını veranda sahnesinde gürleyerek katlederdi.

3.50	Shamsi Saloh qanchalik urinmasin bu ko'zlarning sirli pardasini surib ichkariga kirolmadi.	Şemsi Selah ne kadar çabalasa da bu gözlerin gizemli perdesini iterek içeri giremedi.
3.51	Biroq, baribir bu juvon ko'ziga baxtsiz va natavon bo'lib ko'rindi.	Ancak kayıtsız bu gencin gözleri mutsuz ve çaresiz görünüyordu.
3.52	“U o'z baxtsizligini odamlardan ustalik bilan yashirishga o'rganib qolgan”, deb o'yladi u kechqurun yolg'iz aylanib yurar ekan, yana o'sha manzarani ko'z oldiga keltirib.	"O kendi mutsuzluğunu insanlardan ustalıkla saklamaya alışkın", diye düşündü o akşamüstü tek başına dolaşır iken, yeniden o sahneyi hatırladı.
3.53	Ha, u baxtsiz u tasodifan yoki aldanib bu sharoitga tushib qolgan, endi esa boshqalarga baxtlidek ko'rinib, o'zini aldab yashayapti, xuddi barcha baxtiqaro ayollardek.	Evet, o mutsuz, o tesadüfen ya da kandırılarak bu duruma düşmüştü. Şimdi ise başkalarına mutluymuş gibi görünüp kendini aldatıyordu, tıpkı tüm bahtsız kadınlar gibi.
3.54	Unga o'zining baxtsiz ekanligini va baxtli bo'la olish yollarini ko'rsatish kerak.	Ona kendisinin mutsuz olduğunu ve mutlu olmanın yollarını göstermek gerek.
3.55	Men ko'zlariga qaraboq uni qandaydir g'am ezayotganining guvohi bo'ldim...	Ben gözlerine baktığımda onun herhangi bir üzüntüyle ezildiğine şahit oldum.
3.56	Boshqa kuni tong payti u daraxtzor ichidan Muazzamning tandirga o'tin solish uchun	Başka bir günün şafak vaktinde o korunun içinden Muazzam'ın fırına odun koymak için bir oduncuk, her

	cho‘pchak, har xil xas-xus terib yurganini kuzatib turar ekan, parvarish qilinmaganidan oyoqlari tars-tars yorilib ketgan, erta so‘la boshlagan a‘zoyi badani haftalab suv ko‘rmaydigan bu ayol unga iloha bo‘lib ko‘ringandi.	türlü çer çöpü topladığını görmüş, bakımsızlıktan ayakları çatlamış, halsizleşen bütün vücudu haftalarca su görmeyen bu kadın ona bir tanrıça gibi görünüyordu.
3.57	Tutqundagi qo‘shiq ilohasi!	Esaret altındaki şarkı tanrıçası!
3.58	Ro‘zg‘or va ikir-chikirlar zindoniga zanjirband qilingan iloha!	Geçim kaynağı ve tereddütlerin hapishanesine zincirlenen tanrıça!
3.59	Bu ayolning zanjirband Prometeydan qanday farqi bor?	Bu kadının zincirlenmiş Prometheus‘tan ³ ne farkı var?
3.60	Uning ko‘ziga tobora xunuk ko‘rinib borayotgan Otaqul nariroqda sigir jildirib yurardi.	Onun gözünde git gide çirkinleşen Atakul uzakta inekleri otlatıyordu.
3.61	“Yoq, bular uning qalbini hech qachon tushuna olmaydilar, bu chaylada, bu sahroda tanazzul va zavolning hidi anqib turibdi” deb o‘ylagandi o‘sha tongda, ko‘ngli mustar bo‘lib, iziga qaytar ekan.	"Hayır, bunlar onun kalbini asla anlayamayacaklar, bu çardakta, bu çölde gerileme ve sefaletin kokusu duyuluyor," diye düşündü o, şafakta gönlü kırık bir şekilde, yoluna dönerken.
4.1	Ular daraxtzor oralab sekin yurib kelishardi: to‘g‘rirog‘i, Shamsi Saloh uni “to‘satdan”, “odatlanib	Onlar korunun etrafında yavaşça yürüyorlardı. Doğrusu, Şemsi Selah

³ İlk insanın yaratılışında çeşitli yetenekler verilmesinde ve insanoğlunun Olympos‘un tanrılarına başkaldırısına önderlik eden mitolojik karakterdir.

	qolgan kechki sayrdan qaytayotib ko‘rib qolgan” edi.	onu "ansızın", "adet edinilen akşam yürüyüşünden dönerken gördü”.
4.2	Muazzam o‘tlaqda yelkasiga bir quchoq o‘t ko‘tarib qaytayotib, keksa gujum oldida qip-qizil “kechki shafaqni kuzatayotgan” o‘sha kuni o‘ziga g‘alati-g‘alati tikilib qo‘ygan yozuvchiga duch kelgan edi.	Muazzam çayırda omzunda bir demet otla dönerken, yaşlı gürkaraağaç ⁴ ilerisinde kıpkızıl "akşam şafağını seyrederken" o gün kendisine tuhaf tuhaf bakan yazara rastlamış idi.
4.3	Shamsi Saloh shu yerdayoq o‘zining ziyoli odam ekanligini isbotladi; uning qo‘lidagi o‘tni o‘z yelkasiga oldi.	Şemsi Selah burada kendisinin akıllı bir insan olduğunu kanıtladı. Onun elindeki otu kendi omzuna aldı.
4.4	Tun dalalar orqali sekin daraxtzorga ham yopirilib kelayotgan edi.	Gece tarlaların arasından yavaş yavaş ağaçlara yaklaşıyor idi.
4.5	Muazzam gulli, chetiga chiroz solinib qo‘lda tikilgan odmi kamzul va yoqasiz chit ko‘ylaqda edi, Shamsi Salohning e‘tiborini tortgan uning ko‘kraklari ayni uchishga chog‘langan qoshning qanotlaridek bo‘rtib turardi, oyog‘i, balog‘i changga belangandi, sochidan va bo‘ynidan ter hidi kelardi.	Muazzam çiçekli kenarları nakış işlemeli, elde dikilen sade yelek ve yakasız pamuklu bir gömlek giyinmiş idi. Şemsi Selah'ın dikkatini çeken onun küçük göğüsleri aynı zamanda uçmaya hazır öten bir kuşun kanatları gibi şişkindi, ayağı, bacağı toz içindeydi, saçları ve boynundan ter kokusu geliyordu.
4.6	Hozirgina o‘t o‘rayotib kesib olgan bo‘lsa kerak, uning bir	Az önce çimleri biçmiş olsa gerek, onun bir parmağı gelişigüzel bir toz

⁴ Bir çeşit ağaç.

	barmog‘i naridan beri kir lattaga o‘rab bog‘langan, yuzi xijolatdan va o‘tni shoshib o‘rganidan bo‘lsa kerak, bir oz qizarib ketgan edi.	bezine sarılıydı, yūzü utançtan ve çimleri aceleyle biçtiğinden olsa gerek, biraz kızarmış idi.
4.7	Daraxtzorda qushlar betinim chahchahlardi, qo‘shni brigadada paxta terayotgan mashinalar birin-ketin chiroqlarini yoqa boshlagan edi, ularga ko‘rinmayotgan shiyponda ovqat sizilayotgan bo‘lsa kerak, quvnoq kulgilar eshitilayotgandi — ayni ovqat mahali oshpaz chol “Kimning muchali it bo‘lsa, suyak o‘shaniki” der, garchi bu gap hasharchilar kelganidan beri juda siyqalashib ketgan bo‘lsada; har gapirlanda odamlar qah-qah urib kulishardi.	Koruda kuşlar durmadan cıvıldıyor, komşu tugayda pamuk toplayan makineler birbiri ardına ışıklarını yakmaya başlamış idi, onlara görünmeyen çardaktan yiyecek kokuları sızıyor olsa kerek, neşeli kahkahalar duyuluyordu. Aynı zamanda yemek vakti, yaşlı aşçı "kim köpek yılında doğmuşsa kemik onundur ⁵ " der, gerçi bu söz ırgatlar geldiğinden beri çok yaygınlaşsa da her konuşmada insanlar kahkaha atıp gülüyordu.
4.8	U bugun Muazzamni shu yerda uchratishni bilgani uchun ataylab daraxtzorga kelgandi.	O bugün Muazzam’la burada karşılaşacağını bildiği için bilerek koruya geldi.
4.9	U har kuni kechqurun daraxtzor orasidan sigir sogayotgan yoki chayla atrofini supurayotgan Muazzamni kuzatar edi.	O hergün akşamüstü ağaçların arasında ineğini otlatan ya da çardağının etrafını süpüren Muazzamı’ı izlerdi.

⁵ On İki hayvanlı Türk Takvimine göre oluşturulmuş bir atasözü.

4.10	U qancha kuzatsa, Muazzamning baxtsiz va notavon ayol ekanligiga shuncha ishonib borardi.	O ne kadar izlese Muazzam'ın mutsuz ve çaresiz bir kadın olduğuna daha çok inanırdı.
4.11	Uning qo'shiqlari endi unga o'ta mungli va oh-vohga to'la noladay bo'lib eshitilar edi.	Onun şarkıları artık ona son derece kederli ve ah vah dolu ağıtlar gibi geliyordu.
4.12	U hozir Muazzamni gapga solmoqchi, ichidagilarni bilib olmoqchi, bu shubha va gumonlarini o'z og'zidan tasdiqlatib olmoqchi edi.	O artık Muazzam'la konuşmak istiyor, içindekileri öğrenmek istiyor, bu şüphe ve endişelerini kendi ağzından duyup doğrulamak istiyordu.
4.13	U Muazzamga o'zining bolalig'i, hozir xotirasidan chiqib ketayotgan qishloqlari, maktabni bitirib markazga o'qishga ketgani, "o'sha yoqlarda xalqimizning juda qoloq yashashini anglagan"i, bu qoloqlikdan ular faqat qurbon qilish yo'lidani borsagina qutilishi, faqat yuksak maqsad yo'lidagi qurbonlikgina qoloqlikning va o'rta asrchilikning zich o'rmonini to'la va ravshan yoritishi mumkinligi, buni o'tgan yoli o'z qishloqlariga borib his etgani va hokazolar haqida gapirib berdi (keyinchalik	O Muazzam'a kendi çocukluğunu, artık unuttuğu köylerini, okuldan mezun olup merkezde okumaya gittiğini, "o bölgelerde halkımızın çok geri yaşadığını anlamasını", bu geri kalmışlıktan ancak fedakârlık yaparak kurtulabileceklerini, yalnızca büyük bir amaç için fedakarlığın, geri kalmışlığın ve orta çağın kalabalık ormanının tam ve net aydınlatılabileceğinin mümkün olduğunu ve bunu son kez kendi köyüne gittiğinde hissetmiş, bunun gibi şeyler anlatmıştı (daha sonra o aynı bunun gibi şeylerden bahsettiğini hatırladı).

	u aynan “va hokazolar” haqida gapirib berdim, deb eslagandi).	
4.14	— O‘qish, o‘qish, so‘ng ish, turli yozuv-chizuvlar... bilan umr o‘tib ketibdi, — dedi kamtarlik bilan, “yozuv-chizuv” degani o‘ziga yoqib tushdi, — kishloqdan chiqib ketganimga o‘n yetti yil bo‘libdi.	— Okuma, yazma, çizme gibi türlü türlü işlerle ömür geçip gitti, dedi alçakgönüllülük ile, “yazma çizme” demesi kendi hoşuna da gitti. Köyden çıkıp gideli on yedi yıl olmuş.
4.15	Gohida singlimdan xat kelib qoladi.	Bazen kız kardeşimden mektup gelir.
4.16	Mening esa hayotimga ham kelmaydi — bilasizmi, ba‘zan juda alam qiladi.	Benim evimin kapısına bile gelmez biliyor musunuz, bazen çok acı veriyor.
4.17	— Nima, siz qishloqqa bormay qo‘yganmisiz?	— Ne yani siz köye gitmiyor musunuz?
4.18	— So‘radi uning gaplaridan juda ta’sirlangan Muazzam, daf’atan uning noma’lum yarasiga tegib ketishdan qo‘rqqandek ehtiyotkorlik bilan.	Onun sözlerinden çok etkilenen Muazzam, aniden onun bilinmeyen yarasına dokunmaktan korkarmış gibi itina ile sordu.
4.19	— Ba‘zan.	— Bazen.
4.20	Lekin u yoqda juda zerikaman.	Ama o tarafta çok sıkıldım.
4.21	Odamlar gaplarimdan kulayotganday yoki tushunmayotganday tuyuladi menga.	İnsanlar söylediklerime gülüyormuş gibi ya da anlamıyormuş gibi geliyor bana.

4.22	Siqilib ketasan kishi.	Sıkılıcaksın.
4.23	Ularning sening fikringni emas, rang-ro‘yingni, sochingni, kiyimingni, qanday sigareta chekisingni muhokama qilishadi.	Onlar senin düşüncelerini değil, ten rengini, saçını, kıyafetlerini ve ne tür sigara içtiğini tartışırlar.
4.24	Buni shuning uchun sizga aytayapmanki, siz ham shundaysiz.	Bunu şunun için size söylüyorum ki siz de öylesiniz.
4.25	Odamlar kulmaslik uchun ulardan yashirib qo‘shiq aytasiz... yoki noto‘g‘rimi?	İnsanlar gülmesin diye onlardan gizlice şarkı söylüyorsunuz. Yoksa yanlış mı?
4.26	Muazzam ayb ish ustida qo‘lga tushganday duv qizarib ketdi chog‘i, unga yuzini teskari o‘girib oldi va xijolatomuz jilmaydi.	Muazzam suçüstü yakalanmış gibi aniden kızardı görünüşe göre, o anda yüzünü çevirdi ve utanarak gülümsedi.
4.27	— Shunday... biz ko‘p narsani bilamiz.	— Yani biz çok şey biliyoruz.
4.28	Sizning qo‘shig‘ingizni tunlab turib, — albatta, bu gunohim uchun meni kechirasiz deb o‘ylayman — bilasizmi, nimani esladim; bo‘ynidagi qullik va qoloqlik kishanlarini parcha-parcha qilib tashlab, san‘at, fan va madaniyat sari dadil ketib borayotgan Sharq qizini.	Sizin şarkınızı gece boyunca dinlerken, elbette bu günahım için beni affedersiniz diye düşünüyorum. Biliyor musunuz, ne hatırladım, boynundaki köleliğin ve geri kalmışlığın zincirlerini parçalayıp sanat, bilim ve medeniyete doğru cesurca yönelen doğu kıızı.

4.29	U o‘zining yelkasidagi jaholat va razolat toshlarini itqitib tashlab, taraqqiyot quyoshi tomon mag‘rur ketib borayapti... orqasida esa eski turmushning vayron bo‘lgan imoratlari yotibdi, darg‘azab shamol uni iziga qaytarish uchun sochlaridan, etaklaridan tortqilayapti, pana-panada ilonday sovuq va badbashara qo‘llar unga tosh otayapti.	O kendi omuzlarından cehalet ve rezaletin taşlarını atarak, ilerleme güneşine doğru gururla yürüyor. Arkasında ise eski hayatının kırık dökük izleri var. Öfke rüzgârı onu geri getirmek için saçlarından, eteklerinden çekiyor, yılan gibi soğuk ve çirkin eller ona taş atıyor.
4.30	Lekin u to‘siqlarni yanachib o‘tib, asta-sekin insoniyatning ul oliy dargohiga ko‘tarilib bormoqda...	Ancak o engelleri aşmış, yavaş yavaş insanlığın en üst seviyesine yükselmekte.
4.31	Bunday nokamtar xayollarga borganim uchun meni afv eting, biroq siz shunga munosibsiz...	Bu kadar kusurlu hayaller kurduğum için beni bağışlayın ama siz buna layıksınız.
4.32	Men bunga sizning qo‘shig‘ingizni mana shu daraxtlar orasida turib eshitgan kuniyoq amin bo‘lgan edim.	Ben buna, sizin şarkınızı, işte burada bu ağaçların arasında dururken duymuş, o gün bundan emin olmuş idim.
4.33	Nazarimda, siz bu yerlarda juda siqilib qolganga o‘xshaysiz yo noto‘g‘rimi? Odam o‘zining baxtsiz ekanligini aksariyat hollarda bilmay o‘tadi.	Nazarımda siz buralarda çok sıkılıp kalmışa benziyorsunuz yoksa yanlış mı? Kişi kendinin mutsuz olduğunu çoğu durumda bilmez.

4.34	Baxtsizlikni anglash uchun oquv va bilim bo'lishi kerak, uni baxtdan farqlay olish kerak.	Mutsuzluğu anlayabilmek için okumak ve bilgi sahibi olmak gerek, onu mutluluktan ayırt edebilmek gerekir.
4.35	Axir odam o'z orzusi uchun kurashmasa yoki orzusiz yashasa, bu dahshatku!	Sonuçta insan kendi hayali için savaşıyorsa ya da hayalsiz yaşıyorsa, bu korkunç bir şey!
4.36	Baxt tuyg'usi bizga azaldan o'rgatib kelishganlaridek, bola-chaqa ko'rish va ularni voyaga yetgazish uchun o'lib-tirilish emas, baxt-bani insoniyatga har kim qo'lidan kelganicha xizmat qilishdir.	Mutluluk duygusu bize ezelden beri öğretildiği gibi çoluk çocuk görmek ve onları olgunluğa erdirmek için ölüp dirilmek değil, mutluluğu mümkün olduğu kadar insanlığa her koldan hizmet etmektir.
4.37	Biz yozuvchilar asli omadsiz odamlar bo'lsak ham, mana shu yo'lda baholi-qudrat xizmat qilamiz.	Biz yazarlar hakikatte bahtsiz insanlar olsak da işte şu yolda tüm gücümüzle hizmet edeceğiz.
4.38	Mana sizning qo'lingizdan qo'shiq aytish keladi, o'zbek ayoli nimalarga qodir ekanini boshqalarga ko'rsatib qo'yish keladi.	İşte sizin elinizden şarkı söylemek geliyor, Özbek kadını neler yapabileceğini başkalarına göstermelidir.
4.39	Ammo siz erkin emassiz, qo'shiqni ham hammadan yashirib aytasiz — go'yo bu aybday, aslida mana shu eng katta baxt — siz minglarning qalbini	Ama siz özgür değilsiniz, şarkınızı da herkesten gizli söylüyorsunuz. Sanki bu suçmuş gibi ama aslında işte bu en büyük mutluluk. Siz

	xushnud etish uchun dunyoga kelgansiz.	binlercesinin gönlünü hoşnut etmek için dünyaya gelmişsiniz.
4.40	Muazzam yerga qarab turardi, u hech narsa demas, biron narsa deyishga holi ham kelmasdi, Shamsi Salohning so‘zlari uni sehrlab qo‘ygan, turmushning achchiq tashvishlari ostida ko‘rinmay qolgan, bir paytlar porillab ochilgan qizlik orzularini yana ko‘ngil yuzasiga tortib chiqargan, uning xayolini uzoq-uzoqlarga olib jo‘nagan, so‘nib qolgan havaslar g‘alayonini qo‘zg‘agan edi.	Muazzam yere bakiyordu, o hiçbir şey söylemiyor, bir şey söylemeye hali de yok idi. Şemsi Selah’ın sözleri onu büyülemiş, hayatın acı endişeleri altında görünmez olmuş, bir zamanlar pırıl pırıl parlayan bir kızın hayalleri yeniden kalbinin yüzeyine çıkmış, onun hayalini uzaklara alıp sevgili, sönmüş tutkuların galeyanını harekete geçirmiş idi.
4.41	Uning yuzida shubha ham, ishonch ham, qo‘rquv ham aralashib ketgan edi; biroq baribir ko‘nglining bir chetida bu gaplarga nisbatan endigina yorishayotgan tong singari umid tug‘ilayotgan edi.	Onun yüzünde şüphe de güven de korku da birbirine karışmış idi. Ama yine de kalbinin bir köşesinde bu sözlere kıyasla şimdi aydınlanan şafak gibi bir umut doğmuş idi.
4.42	Ular daraxtzorning quyuq joyida to‘xtab qolgan edilar: tun daraxtlar orasidan mo‘ralab, ularni kuzatib turardi, daraxtlar yengil shitirlardi: Shamsi Saloh ko‘tarib olgan o‘tdan ko‘kat hidi anqirdi — qandaydir qildiq —	Onlar korunun karanlık kısmında durmuşlardı. Gece, ağaçların arasından onları gözetliyor, hafifçe hışırıyordu. Şemsi Selah otlardan yükselen çim kokusu alıyordu. Herhangi bir şey, çimlerden düşmüş olmalı, boynunu gıdıkliyordu.

	o‘tdan tushgan bo‘lsa kerak — bo‘ynini qitiqlardi.	
4.41	Shamsi Saloh ayollarga bo‘lgan munosabatini hamisha yashirib yurardi.	Şemsi Selah kadınlara olan tavrını her zaman gizlerdi.
4.42	Biroq hozir gaplariga mahliyo bo‘lib, o‘zini yo‘qotish darajasiga yetgan mana shu qishloq juvonini quchgisi, uning titrab turgan lablaridan o‘pgisi, bir juft qanotdek dirkillayotgan, tepsinayotgan ko‘kraklarini hovuchiga olib, olis-olislarga uchirgisi, shu lahzalarda qon seli nihoyatda tezlik bilan aylanayotgan vujudni qo‘llarida ko‘tarib, sakrab-sakrab, aylanib-aylanib yugurisi kelardi.	Ancak artık sözlerinden o kadar etkilenmişti ki kendini kaybetme noktasına gelmiş, işte şu köy gencini kucaklayası, onun titreyen dudaklarını öpesi, bir çift kanat gibi çırpınan göğsünü avuçlarına alıp uzaklara uçası, o anda kan seli gibi son derece hızla dönen bedenini kollarında taşıyıp daldan dala konarak koşası geliyordu.
4.43	Daraxtzor, ikkalasini etaklari ostiga yashirgan tun va ham hayo, ham noma‘lum qo‘rquvdan karaxt bo‘lib qolgan, Shamsi Salohning ko‘z oldini mayoqday yoritib turgan suluv juvon uni goh gunohga, goh gunohsizlikka o‘xshaydigan, inson yaralgandan beri ko‘r-ko‘rona shaydo bo‘lib kelgan nelargadir chorlardi.	Ağaçlar, ikisini de eteklerinin altına saklayan gecenin, hem haya gibi hem de bilinmeyen korkusuyla uyuşturmuş, Şemsi Selah’ın gözleri önünde bir deniz feneri gibi parlayan güzel genç kadın onu bazen günaha, bazen de sevaba götürür, insanoğlu yaratıldığından bu yana körü körüne sevdalanarak bir şeyleri davet ederdi.

4.44	U hissiyotga hech qachon berilmasdi va hissiy narsalar unga hidi fil'mlari ruhida tarbiyalangan o'n olti yashar xayolparast qizlarning mashg'ulotiday bo'lib tuyullardi — o'z hissiyotlarini ham u aqlga, fikrga garchi, zo'rlik bilan bo'lsa ham bo'ysindirib olgan, shu sababli uning hissiyoti ham juda ustalik bilan charxlangan va zeb berilgan qilichga o'xshar edi.	O hechbir zaman duygusal olmamishi ve duygusal şeyler ona, kötü kokulu filmlerin ruhuyla büyümüş on altı yaşındaki hayalperest kızların meşguliyeti gibi geliyordu. O kendi hislerine de akla ve düşünceye gerçi zorla olsa da boyun eğmeye, bundan dolayı onun duyguları da büyük bir ustalıkla keskinleştirilmiş ve süslenmiş bir kılıca benziyor idi.
4.45	Endi esa hissiyotlari unga bo'ysunmayotgan, bo'ysunishini istamayotgandi va bu o'ziga ham allanechuk yoqmoqda edi.	Şimdi ise duyguları ona itaat etmiyor, itaat edilmek istemiyordu ve bu kendisinin de garip bir şekilde hoşuna gidiyordu.
4.46	...Moviy osmonni nozlana-nozlana kezib yurgan ul ko'k hiloli bilan daraxtlar orasida qisinib-qimtinib, yuzida hayo va andak hurkaklik bo'rtib turgan, yonoqlari yalovday hilpirayotgan bu ayolning qanday farqi bor?	Mavi gökyüzünde nazlı nazlı dolaşan o mavi hilal ile ağaçların arasına sıkışan, yüzü haya ve biraz ürkeklikle dolu yanakları bayrak gibi dalgalanan bu kadının arasında nasıl bir fark var?
4.47	Farqi shuki, ul hilol osmonlik, bunisi esa yerlik.	Fark şu ki o hilal gökyüzünden, bu ise yerdendir.
4.48	Unisining ming yillardan beri yerdan nimadir izlay-izlay yuzlari za'faron bo'lib qolgan.	Binlerce yıldan beri yerde bir şey ararken yüzleri safran rengine dönüp kalmış.

4.49	Bunisi esa oqshomni zarrin nurlar bilan bezagan ul ko'klik musavviraga hasadi kelganday atirgul bargi yanglig' qizargan, go'yo bu oqshomni yuzining qizil shu'lasi bilan cho'miltirib, zarrin oyni rashk o'tida ado qilmoqchidek.	Bu ise akşamı altın ışıklarla süsleyen o gök mavisi ressamı kıskanmış gibi, gül yaprağı gibi kızaran, sanki bu akşamı yüzünün kızıl ışıltısıyla yıkayıp, altın ayı kıskanıyor
4.50	Za'faron yuzi yana ham sarg'aytib-so'litmoqchidek...	Safran yüzü daha da sararıp solmuş gibi.
4.51	Yo'q, bu kelinchak hilondan ham ko'ra gulga ko'proq monanddir.	Hayır, bu gelincik yılana kıyasla çiçeğe daha çok benziyor.
4.52	U kimningdir chorlovini eshitgan-u, bu churkun daraxtlar orasida porillab ochilgan, — undan atrofga g'urur va erk shu'lalari taralayapti.	O birinin çağrısını duydu, bu boğumlu ağaçların arasında bir ışıltı görüyor, onun etrafına gurur ve özgürlük ışıkları yayılıyordu.
4.53	Shuning uchun ham hilol uning yonog'iga hol bo'lishni istagandek yotog'idan bosh ko'tarar-ko'tarmas cho'lning asov shamollari tarab qo'ygan bu zebo chehraga shaydo bo'lib tikilib qolgan.	Bunun için de hilal onun yanağına dokunmak istiyormuş gibi yatağından başını kaldırır kaldırmaz çölün asi rüzgarlarının savurduğu bu güzel yüze hayretle bakakaldı.
4.54	Yo'q, bu ayol hammasidan ham dilbar bir she'rning go'zal satriga o'xshaydi — bu yerlardan qachonlardir qandaydir daho shoir o'tganu, uni mulku falak	Hayır, bu kadın hepsinden de cazibeli bir şiirin güzel bir dizesine benziyordu. Bu topraklardan bir zamanlar dahi bir şairin geçtiği, onu varlığıyla dünyaya bağlayan uçan

	bilan bog‘lab turadigan uchqur xayollari va mo‘jizalar yaratuvchi tilidan tuprog‘i jizg‘anak bo‘lib yotgan sahroi-biyobonga bu go‘zal satr bir tomchi ko‘zyosh yanglig‘ sirg‘alib tushib qolgan.	hayalleri ve mucizeler yaratan diliyle toprağı sızlatan Sahra Çölü’ne bu satır bir damla gözyaşına benzer bir şekilde sessizce gitti.
4.55	Oy esa shu go‘zal satrni izlab yurgan ul shoirning yoniq xotirasidir.	Ay ise bu güzel dizeyi arayan büyük şairin yakıcı bir hatırsıdır.
4.56	Uning yonida qilichini tushirib qo‘ygan bahodirday aql hushidan ayrilib turgan bu nozik-ta‘b, kibor sifat shoir ul go‘zal satrni o‘qiy olarmikin?	Onun yanında kılıcını düşüren bir kahraman gibi aklı başından giden bu narin kişi, kibar ve kaliteli şairin o güzel dizelerini okuyabilir mi?
4.57	Tushunarmikin?!	Anlayabilir mi?
4.58	Undagi dardli so‘zlarni his etarmikin?	İçindeki acı sözleri hissedebilir mi?
4.59	Yoki bu go‘zal satr o‘qilmas bitikdek zamonlar osha sirli va maftunkorligicha jaranglab qolaverarmikin?	Veya bu güzel mısra okunmayan yazıt gibi gizemli ve büyüleyici, yankılanan olarak kalır mı?
4.60	Bu yerlik hilol shunchalar go‘zalki, uning oldida ul ko‘hlik hilol chala tug‘ilgan go‘dakning yuziga o‘xshab qoladi, oyga qarab turib, hech bir nuqson topolmaysan, yo‘q, yo‘q, mana	Bu dünyevi hilal o kadar güzel ki, onun önünde çekici hilal, prematüre doğan bir bebeğin yüzüne benziyor, aya bakarken hiçbir kusur bulamazsın, hayır, hayır, işte bu mükemmelliğin kendisi değil midir?

	shu benuqsonlikning o‘zi nuqson emasmi?	
4.61	Yerlik hilol esa “nuqson” va “benuqson” degan tasavvurlarga bo‘ysunmaydi, uni so‘zlar ifodasiga solib bo‘lmaydi, uning nomini eshitish bilanoq so‘z ham, til ham qo‘yib ketadi...	Yerli hilal ise "kusurlu" ve "kusursuz" kavramlarina boyun e‘gmez, o so‘zcuklerle ifade edilemez, onun adi duyulur duyulmaz so‘z de dil de kifayetsiz kalir.
4.62	Keyinchalik shu lahzalarni eslab, meni Muazzamni qochib olish istagidan faqat uni cho‘chitib yubormayin degan xavotirgina to‘xtatib qolgandi, deb oylagandi.	Daha sonra bu anlari hatirlayarak Muazzam’in kachmak iste‘ginden onu durduran tek seyini onu urkutmeme kaygisi oldu‘gunu du‘shundu.
4.63	Kim biladi, balki shundaydir, balki shu juvon baribir bir kuni qo‘limga tushadi degan o‘jar bir ishonch qaytarib qolgandir.	Kim bilir, belki oyledir, belki de bu gencin kayitsiz bir gun benim elime du‘sece‘gine dair inatla direnen bir inancim vardir.
4.64	Balki, odamlarga tez ta’sir qiladigan, nomini eshitsa, ko‘zlarida ehtirom oyg‘onadigan “yozuvchi” degan obro‘sigaputur etkazishdan qo‘rqqandir yoki chirigan shoxlari sinib, barglari to‘kilganidan mushtipar qiyofaga kirgan va g‘ira-shira qora ko‘lankalarga aylangan qarovsiz daraxtlarga qaraganda ham mushtiparroq bo‘lib qolgan, o‘zining shakarguftorligiga	Belki insanlari chabuk etkileyen, ismini duysa, go‘zlerinde saygi uyandiran bir "yazar" olarak itibarının zarar go‘rmesinden korkmuş ya da çürümüş dalların kırılması ve yaprakların dökülmesiyle zavallı kılığına giren ve sisli kara gölgelere dönüşmüş bakımsız ağaçlara nispeten daha aciz görünen, kendi tatlı dilliliğine açık bir şekilde inanan sade gelinciğin haya, iffet, tatsız sessizlikten

	ro'yirost ishongan sodda kelinchakning hayo, iffat va noxush sukunatdan yorilish arafasidagi shardek tarang bo'lib turganini ko'rib, o'zining balandparvoz xayollaridan va hayosiz istagidan uyalgandir.	patlamak üzere olan bir balon gibi gerilerek, kendisinin gösterişli hayallerinden ve hayasız isteklerinden utanıyordu.
4.65	Oraga cho'kkan bir necha soniya sukutdan so'ng u rostdan ham o'zini bosib oldi da va zohiriy ko'rinishga yarashmagan yumshoq va hamdardona ohangda: — Bu yerda yashash juda og'irmi? — dedi va o'zining savolidan o'zi ezilib ketdi.	Orada birkaç saniyelik sessizliğin ardından o sahiden de kendine geldi ve dış görünüşüne yakışmayan yumuşak ve sempatik bir sesle; — Burada yaşamak zor mu, dedi ve bu sorusu karşısında kendisi de ezilmişti.
4.66	Muazzam indamadi, faqat bosh irg'adi — Shamsi Saloh ayolning ko'z milklarida paydo bo'lgan va oy nurida yaltirab ketgan ko'zyoshlarini ko'rib, ko'ngli shafqat va iltifot bilan to'ldi; Muazzam hatto boshini ko'tarib qaramadi, agar biror narsa desa ho'ngrab yig'lab yuboradigan holi bor edi uning.	Muazzam bir şey söylemedi, ama başını salladı. Şemsi Selah kadının göz ve diş etlerinde beliren, ay ışığında parıldayan gözyaşlarını görünce gönlü şefkat ve iltifatlarla doldu. Muazzam başını kaldırıp bakmadı, eğer bir şey söylese hüngür hüngür ağlayacak hâli vardı onun.
4.67	— Siz, bu yerlardan qadringizga etadigan, orzuvingizni ro'yobga chiqaradigan kishilar orasiga ketarmidingiz, ular yordam	— Siz, buraları size değer veren, hayallerinizi gerçekleştiren insanlara bırakır mıydınız, onlar yardım eli uzatsalar buraları bırakmayı kabul eder miydiniz?

	qo‘lini cho‘zishsa, bu yerlardan ketishga rozi bo‘larmidingiz?	
4.68	— Ha! — dedi go‘yo bu taklifni qilayotgan odam fikridan qaytib qolishidan qo‘rqqanday shoshib Muazzam.	— Evet! dedi sanki bu teklifi yapan kishinin fikrini de‘gishirmesinden korkuyormus‘ gibi aceleyle, Muazzam.
4.69	U juda ham to‘lqinlanib ketgan edi, hali hech kim u bilan orzilariyu armonlari to‘g‘risida bunday gaplashmagan, dunyoda ish, tashvish, o‘choq, qozon-toboqdan boshqa ko‘ngil degan narsa ham bor, deb aytmagan edi.	O ‘ok da heyecanlıydı, hi‘ kimse onunla ger‘ekleşmeyen hayalleri do‘rultusunda bu şekilde konuşmamıştı, dünyada iş, endişe, ocak, tencere tavadan başka gönöl denilen şey de var diye söylememiş idi.
4.70	— Agar birov sizni orzuvingizdagiday baxtga yetaklab borsa, nima qilgan bo‘lardingiz, umuman, men rozilik ma’nosida aytmoqchiman...	— Eğer birisi sizi hayallerinizdeki gibi mutlulu‘a götürse, ne yapardınız, genel olarak, ben bunu anlaşma manasında söylüyorum.
4.71	Muazzam yerga tikilib turardi, u nimalarnidir tushunmayotganga, nimalarnidir anglolmayotganga o‘xshardi.	Muazzam yere bakıp duruyordu, o hi‘bir şey düşünmüyormuşa, hi‘bir şey anlamıyormuşa benziyordu.
4.72	Nega endi hozir, nega endi aynan, hozir, tunda, daraxtlar orasida bu — o‘zi tilga olishga ham, eslashga ham qo‘rqadigan narsalar hakida gapirayotganlariga, nima uchun	Ni‘in şu anda, neden şimdi aynen, şimdi, geceleyin, ağa‘lar arasınd, kendisinin de dile getirmekten de hatırlamaktan da korktu‘u şeyler hakkında neden konuştuklarını, ne i‘in sorduklarını anlamıyor idi.

	soʻrayotganlariga tushunmayotgan edi.	
4.73	— Bir umr... bir umr duo qilardim u odamni, — deb shivirladi u oʻziga oʻzi gapirayotganday.	— Bir ömür. Bir ömür boyunca dua ederdim o adama, diye fısıldadı o kendi kendine konuşuyormuş gibi.
4.74	Shamsi Salohga boshqa narsa kerak emas edi.	Şemsi Selah'a başka hiçbir şey gerekli değil idi.
4.75	U Muazzamdan mana shu gapni olish uchun bir haftadan beri atrofida girdikapalak boʻlayotgan, uning koʻnglini bilmoqchi, bu sohoda qalbga qarmoq tashlab koʻrmoqchi edi.	O Muazzam'dan işte şu sözü almak için bir haftadan beri etrafında pervane olmuş, onun kalbini bilmek istiyor, bu bölgede kalbine bir olta atmak istiyordu.
4.76	U hozir rejasi bunchalik oson amalga oshganidan baxtiyor ham edi, endi buyogʻi aniq — qishloqning changida oyoqlari yorilib yurgan suluvni sanʼat malikasi qiladi.	O şimdi planının bu kadar kolay harekete geçmesine sevinmiş idi, şimdi tarafı belliydi. Köyün tozunda ayakları çatlayan güzeli sanatın kraliçesi yapacaktı.
4.77	U yulduzlari pirpirab turgan salqin kechada uzoq kezdi, tun hozirgina oʻzini maʼsud etgan kelinchak yangligʻ sirliligi va fasohati bilan uning qalbini sirqiratar, ogʻritar, uni hislar quyuniga tashlar edi.	O yıldızların parlayıp durduğu serin gecede uzun bir yürüyüşe çıkmıştı, gece az önce kendisini mesut eden gelinciğin gizemi ve fesahat ile onun kalbini sızlatıyor, ağrıtıyor, onu duygular kasırgasına sürüklüyor idi.

4.78	U ichiga kirib olgan kim bilandir xayolan olishar, munozara qilar, tortishar edi.	O ichine giren herkesle hayal kurar, konuŝur, tartiŝir idi.
4.79	U hozir vujudida tug'ilayotgan narsalarni she'r qilishni istar, ko'ngliga kecha qa'ridan, yulduzlar shu'lasidan sim-sim satrlar oqib tushar edi.	O ŝimdi bedeninde doĝan ŝeylere dair ŝiirler yazmak istiyor, g�nl�ne gecenin derinliklerinden, yildizların ıŝıltısından hafif hafif dizeler halinde akıp duruyor idi.
4.80	"Sen", — deb murojaat qilar edi u xayolan kimgadir, — yovvoyi o'tlar orasida o'sgan gulsan.	"Sen", diye m�racaat ediyor idi o zihnindeki birine. Sen yabani otların arasında b�y�yen bir �i�eksin.
4.81	Sen ko'zda qalqib turgan bir tomchi yoshsan...	Sen g�zde y�zen bir damla yaŝsın.
4.82	Sen baxtli bo'lishing kerak, sen yer yuziga faqat baxtli bo'lish uchun kelgansan, sening ovozing odamzodni go'zallik va xayolot o'lkasiga boshlab borish uchun in'om etilgan.	Sen mutlu olmalısın, sen yer y�z�ne sadece mutlu olmak i�in gelmiŝsin, senin sesin insanlıĝı g�zellik ve d�ŝler diyarına g�t�recek kadar yetenekliymiŝ.
4.83	Sen tabiatning eng durdona va noyob namunasisan, seni tabiat faqat go'zal narsalar uchun yaratgan.	Sen tabiatın en kıymetli ve paha pi�ilemez �rneĝisin, k�inat seni sadece g�zel ŝeyler i�in yarattı.
4.84	Sen — odamlar million yillardan beri izlab kelayotgan ohangsan, bu ohangni dunyoning yovuz kuchlari yanchishga, yo'q qilishga urinadilar, lekin sen	Sen insanların milyonlarca yıldan beri aradıĝı melodisin, bu melodi d�nyanın k�t� g��lerinin ezmeye, yok etmeye �abaladıĝı melodidir. Ancak sen git gide yankılanıyorsun,

	tobora yangrayverasan, sen — gullar timsolida, toshdan-toshga sakrab yugurayotgan zilol suvli jilg‘alar, endigina bosh ko‘targan maysalar, tonggi shudring, kechki shafaq timsolida odamlar qarshisida paydo bo‘laverasan...	sen çiçek misali, taştan taş sığrayan temiz dereler, başını daha yeni kaldırmış çimenler, sabah çiyi, akşam şafağı misali insanların huzuruna çıkacaksın.
4.85	...Qo‘y, uni tashla, dunyoning bu azaliy ikir-chikirlaridan voz kech, sen hamma narsadan, hatto dunyodan ham ustun turuvchi ilohasan.	Bırak, onu bırak, dünyanın bu ezeli teferruatlarından vazgeç, sen her şeyden, hatta dünyadan da üstün olan bir tanrıçasın.
4.86	Sen faqat ardoqlanishga, e‘zozlanishga va farog‘atga munosibsan.	Sen yalnızca sevmeye, saygıya ve huzura layıksın.
4.87	O, kel, mening ko‘nglimni to‘ldir, tezrok, kel, dunyo to sengacha yarim edi.	Ah, gel, beni mutlu et, acele et, gel, dünya sen gelene kadar yarım idi.
4.88	Sen uni tuldir, mayli, mening ko‘ksimni bosib o‘t, mayli, mening tanamni poyondoq qil, faqat sen yurgan yo‘llarda gullar ko‘karsa bo‘ldi, sening ovozingni eshitib, chechaklar bosh ko‘tarsa bo‘ldi, sening ovozingni eshitib dunyo hoshyor tortsa bo‘ldi...	Sen onu doldur, peki, benim göğsümün üzerine basıp geç, peki, bedenimi sonsuz kıl, sadece senin yürüdüğün yollarda çiçekler açar, senin sesini duyunca, çiçekler başını kaldırır, senin sesini duyunca dünya uyanır.
4.89	...Ko‘rayapsanmi, yerni turtib-turtib maysalar bosh ko‘tayapti, kurtaklar chirigan po‘stloqni	Görebiliyor musun, toprağı ite ite çimenler başını kaldırıyor, tomurcuklar çürümüş kabuklarını

	yorib chiqayapti, g'unchalar ochilayapti — bular hammasi bir lahzada bo'layapti, chirigan, so'lgan, payhon qilingan gullar qayta barg yozayapti, bog' turli iforlarga burkanayapti, daraxtlar novda tugayapti, yomg'ir o'ziga kamalaqdan libos tikayapti — bari seni qo'shig'ingdan, sening ilohiy ovozingdan, sen ohanglarni yondirgan ohangsan, sen tun qo'ynida lovullab turgan alangasan!..	yarip chikiyor, goncalar aciyor, bunlarnin hepsi bir anda oluyor, churumuş, solmuş, çignenen çiçekler yeniden yaprak aciyor, bahçe türlü yapılarla kaplanıyor, ağaçlar filizleniyor, yağmur gökkuşağına bürünüyor, hepsi senin şarkından, senin ilahi sesinden. Sen şarkıları ateşleyen bir melodisin, sen gecenin koynunda parlayan bir alevsin!
4.90	...Ana sen dunyoni kulgung bilan to'ldirmoqchidek, qiqirlab kulayapsan, yuzingdan jilvalanib-jilvalanib ohanglar taralayapti.	İşte sen dünyayı kahkahalarınla doldurmak istermiş gibi gülüyorsun, yüzünden titreye titreye melodiler yayılıyor.
4.91	Ana sen qizg'aldoqlar ichida yugurib borayapsan, egningda oq harir ko'ylak, boshingda qizil durra... y'oq... yo'q, bu durra emas, qizg'aldoqning bir dona bargi, egningdagi kechagina gullagan o'rigning libosi...	İşte sen gelinciğin içinde yürüyorsun, omzunda beyaz ipek gömlek, başında kırmızı bir örtü. Hayır, hayır, bu bir başörtü değil, gelinciğin bir adet yaprağı, omzunda daha dün çiçek açan kayısının elbisesi.
4.92	...Ana sen billur zinalardan yuksaklikka ko'tarilayapsan... oyoqlaring ostida baxtning, shon-shavkatning suyaklari sochilib yotibdi — sen, ana, bu qadimiy	İşte sen kristal merdivenlerden yükseklerle tırmanıyorsun. Ayaklarının altında mutluluğun, şan ve yüceliğin kemikleri dağılıyor, sen işte bu kadim karanlığı ve sessizliği

	zulmat va sokinlikni ovozing bilan tilib borayapsan — ovozing yonib borayapti, bu sahroda o‘z nomini yo‘qotgan va nomsiz narsalarga nom berayapti, ism berayapti, adashgan dunyoni yana o‘z holiga qaytarayapti...	sesinle kesiyorsun. Sesin yanıyor, bu sahrada kendi adını kaybetmiş ve isimsiz şeylere nam veriyor, isim veriyor, kaybolan dünyayı yeniden kendi haline döndürüyor.
4.93	Senga musiqaning keragi yo‘q, sening ovozingga faqat yulduzlar kuy bastalay oladi...	Senin müziğe ihtiyacın yok, senin sesine yalnızca yıldızlar melodi besteleyebilir.
4.93	...Ko‘zlaringni ochib yumishing tun bilan tong almashishiga o‘xshaydi — kipriklaring tonggi yulduzlardek yaraqlab ketadi — qani edi ko‘zlaring ayvonida uxlab yotgan kipriklardan bittasi men bo‘lsam...	Gözlerini açıp kapatmak geceyle sabahı değiştirmeye benzer. Kirpiklerin şafak yıldızları gibi parlar. Hani gözlerinin verandasında uyuyan kirpiklerden bir tanesi ben olsaydım.
4.94	Yo‘q, sening makoning yer emas, sen falak qizisan...	Hayır senin yerin toprak değil sen gökyüzünün kızıydın.
4.95	Sen oy kursisidan yerga shafqat bilan boqayotgan farishtasan, sen hurlik farishtasisan, sen orzuning, xayolning suratlarini chizib berish uchun bu dunyoga kelgansan...	Sen ayın kürsüsünden yere şefkatle bakan meleksin, sen bir özgürlük meleğisin, sen arzular ve hayallerin resmini çizmek için bu dünyaya gelmişsin.
4.96	Oy ko‘k dengizida qip-yalang‘och suzib yurardi.	Ay, mavi deniz üzerinde, çıplak süzülüp duruyordu.

4.97	U tashqariga gulxan yoqib, hasharchilar qandaydir rok muzikaga dikonglashayotgan shiypon tomon borar ekan, yaqin kunlarda boshlanajak yangi hikoya haqida o‘ylardi.	O dıřarıda ateř yakıp ırğatların ne zamandır rock müzik aldığı ardağı doęru giderken önümüzdeki birkaç gün içinde başlayacak yeni hikâye hakkında düşünüyordu.
4.98	U bilan tun ham dalalar uzra qadam tashlab yurar, sarpo kiyib olgan qora po‘stinda zarhal ziraklar yaltirardi.	Onunla birlikte gece de tarlaların üzerinde adım atıyordu, takım giydięi siyah teninde bronz küpeler parlıyordu.
5.1	Shamsi Saloh Muazzam haqida o‘ylayverib, uni sal bo‘lmasa xo‘rlik va jabrning timsoliga aylantirib qo‘yayozgan edi.	Şemsi Selah, Muazzam hakkında düşünüyor, onun biraz ařağılanmanın ve baskılanmanın simgesi haline dönüřtürmekteydi
5.2	Uni ayanchli muhit o‘rab olgan, deb o‘ylardi, uni hech kim tushunmaydi, “xuddi meni tushunishmagandek”.	Onu esirgeyen bir ortamla çevrili olduğunu, onu hiç kimsenin anlamadığını, “sanki beni anlamıyorlarmış gibi” diye düşündü.
5.3	Erini esa xotinining baxti ham, baxtsizligi ham qiziqtırmaydi, u Muazzamga azaliy ota-bobolaridek sochi uzun deb qaraydi.	Kocası ise karısının mutluluęuyla da mutsuzluęuyla ilgilenmiyor, o Muazzam'a baba dedeleri gibi uzun saçlı kadın diye bakıyordu.
5.3	U mana shunday — ishga borib, ishdan kelib, yana ertalab ishga ketib yashasa bo‘ldi, xuddi hasharotday, xuddi qurtday.	O işte böyle, işe git, işten gel, tekrar sabahleyin işe git, öylece yaşa, aynı böcek gibi, aynı solucan gibi.
5.4	Ayanch!	Çok acı!

5.4	Mudhish!	Korkunç!
5.5	Muazzam ana shunday erkak bilan yashashga majbur, uning orzulari, ovozi bu xil yashashning qurboni bo'lib ketaveradi, bir kuni qarasa u ham bir-biridan injiq, biri-biridan nimjon bolalarning onasi, hamma onalarga o'xshab o'zbilarmon, shang'i, vaysaqi, bir gapga ming gap bilan javob beradigan jag'-jag' ayolga aylanadi.	Muazzam işte böyle bir adamla yaşamaya mecbur, onun arzuları, sesi bu yaşamın kurbanı olup gitmiş ve bir gün o birbirinden huysuz, birbirinden zayıf çocukların annesi, diğer annelere benzeyen, çok bilmiş, bağırان, geveze, tek söze bin sözle cevap veren geveze bir kadın olacak.
5.6	Bu uning muqarrar qismati.	Bu onun kaçınılmaz sonudur.
5.7	Uni bu zulmattan muhitga olib kirish kerak.	Onu bu karanlıktan alıp ortama çıkarmak gerek.
5.8	Muazzam uning barcha xayollari va o'ylarini ostin-ustun qilib tashladi: hali qizlik nafosati tashlab ketmagan bu ayolda yashirinib olgan ulug' rejalarni ko'rdi.	Muazzam onun tüm hayalleri ve düşüncelerini altüst etti. Henüz kızlık zarafetini kaybetmemiş bu kadında büyük planların saklı olduğunu gördü.
5.9	U Muazzamning sodda, samimiy gaplaridan birdan o'zini yoqotib qo'ydi.	O Muazzam'ın sade, samimi sözlerinden dolayı birden kendini kaybetti.
5.10	Hali o'n gulidan bir guli ochilmagan kelinchakning gaplaridagi ishonchsizlik va umidsizlikdan larzaga keldi, (u	Henüz on çiçekten birini açmamış olan gelinciğin sözlerine inanmaması ve çaresizliği karşısında sarsılmıştı (o daha sonra

	keyinchalik "larzaga keldim" deb eslagandi) Shamsi Salohning vujudida homiylik, fidoyilik tuyg'ulari jo'sh urib ketdi, u bu kelinchakka najot yo'llarini ko'rsatmoqchi, uni "orzular o'lkasi"ga, madaniyat va san'at gulshaniga yetaklab chiqmoqchi bo'ldi.	"sarsıldığını" hatırladı). Şemsi Selah'ın bedeninde himaye ve fedakârlık duyguları coştı, o bu gelinciğe kurtuluş yollarını göstermek istiyor, onu "hayaller diyarına", kültür ve sanatın gül bahçesine götürmek istiyordu.
5.11	U turmush ezib tashlagan, erining injiklik va qo'polliklaridan behad ko'p zug'um ko'rgan juda ham yovvoyi muhit bilan qurshalgan yosh ayolni yangi hayot sahnasiga yetaklab chiqishi madaniy dunyoda qanchalik shov-shuvga sabab bo'lishini ko'z oldiga keltirib, xushvaqt jilmayib qo'ydi va Muazzamni teatr sahnalarida, zallarda, ko'chalarda muxlislar olomonining xushomadona chehralari ichida yal-yal yayrab ketayotganini hamda har bir burchakda poylab turgan olqishlardan va shon-shavkatdan bir oz esankiragan Muazzamning o'zining yelkasiga bosh qo'yib, minnatdorona tikilib, quvonch va saodatdan silkinib-silkinib	O, evliliği yüzünden ezilen, kocasının huysuzluklarından ve kabalıklarından çok fazla acı çeken, etrafı vahşi bir çevreyle çevrilen genç kadına yeni hayat sahnesinde liderlik etmesinin kültür dünyasında ne kadar büyük bir sansasyon yaratacağını hayal etmişti, hayatın bu yeni aşamasını gözünün önüne getirip sevinçle gülümsedi ve Muazzam'ın tiyatro sahnelerinde, salonlarda, sokaklarda, hayranları ve iltifat eden yüzler arasında parıldayarak dolaştığını gördü hem de her köşede tetikte bekleyen alkış ve ihtişamdan biraz başı dönen Muazzam'ın kendisinin omzuna başını koyup minnetle bakarken, neşe ve mutluluktan ağladığını hayal edebiliyordu. Muazzam ağlarken "bütün bunlar sizin sayenizde, siz

	yig'layotganini xayolan tasavvur qilardi; Muazzam yig'lab termular ekan "bular bari siz tufayli, siz bo'lmasangiz shu kunlarga yetmasdim" deb shivirlaydi...	olmasaydınız bu günlere ulaşamazdım" diye fısıldıyordu.
5.12	Bular bari rohatbaxsh xayollar edi.	Bunların hepsi hoş hayaller idi.
5.13	Lekin ayni paytda u o'zining aynan ana shunga ahd qilganini va bu yo'ldan o'zini hech kim endi qaytarolmasligini his etardi.	Ama ayni zamanda kendisinin işte buna karar verdiğini ve bu yoldan onu hiç kimsenin döndüremeyeceğini de hissediyordu.
5.14	U har qanday to'siqni bosib, yengib o'tadi, mana shu ezilgan, mana shu xo'rlangan juvon haqqi, uni saodat behishtiga olib chiqadi, yuzini to'sib turgan qora bulutlarni surib tashlab, tong yulduzi kabi san'at osmoniga ko'z-ko'z qilib, ilib qo'yadi.	O her türlü engeli aşacaktı, işte bu ezilen, işte bu aşağılanmış gencin hakkıydı, onu mutluluk cennetine götürüp, yüzünü kaplayan kara bulutları uzaklaştırıp, bir şafak yıldızı gibi sanatın semasına imrendirecekti.
5.15	Muazzamni ko'rgandan so'ng negadir o'ziga yoqmay qolgan yuvvoshgina Otaqul uning endi g'ashini keltira boshlagandi.	Muazzam'ı gördükten sonra her nedense ondan hoşlanmayan yumuşak Atakul, onun şimdi sinirini bozmaya başlamıştı.
5.16	U Otaquldan johil erlarga xos bo'lgan xislatlarni izlar, ba'zan kechqurun daraxtzorni aylanib yurar ekan, sigir sug'orib yurgan Otaqulga duch kelar va bosh	O, Atakul'da cahil kocalara özgü vasıfları görür, bazen akşamüstü koruda dolaşırken inekleri otalatan Atakul'a rastlar ve başını sallayarak selamlaşıp konuşmadan geçerci.

	irgʻab salomlashib indamay oʻtib ketardi.	
5.17	Oxiri u Otaqul bilan uchrashishga, koʻnglidagi barcha gaplarni gaplashib olishga, uni undab koʻrishga, koʻnmasa poʻpisa qilishga ahd qildi. (Nazarida Otaqul boshqacha usulga koʻnmas edi).	En sonunda o Atakul ile buluşmaya, aklındaki her şeyi konuşmaya, onu görmeye, eğer kabul etmezse tehdit etmeye karar verdi. (Ona göre Atakul başka bir yöntemi kabul etmezdi).
5.18	Xullas, har qanday yoʻl bilan boʻlsa ham Muazzamni bu muhitdan sugʻurib olishga qaror qildi.	Böylece herhangi bir yolla Muazzam'ı bu ortamdan çekip çıkarmaya karar verdi.
5.19	U Otaqul bilan daraxtzorda ikki marta uchrashib qoldiyu lekin jurʻat etolmadi.	O Atakul ile koruda iki kez karşılaştı ama cesaret edemedi.
5.20	Buning uchun oʻzini oʻzi yeb qoʻydi, ertasiga qanday boʻlmasin, qanday sharoit tugʻilmasin, unga hammasini aytaman deb qaror qildi.	Bunun için kendi kendini yedi, ertesi gün ne olursa olsun, şartlar ne olsa da ona her şeyi anlatmaya karar verdi.
5.21	U hamisha toʻgʻridan-toʻgʻri harakat qilishga oʻrgangandi, nishonini uzoq moʻljalga olishni u oʻziga yep koʻrmasdi.	O her zaman doğrudan doğruya hareket ederdi, hedefine uzak bir atış yapmayı kendine yedirmezdi.
5.22	Otaqulni kechqurun shiypon oldida teatrning xoʻjalik ishlari mudiri bilan birga uchratdi.	Atakul'la akşamüstü çardağın önünde tiyatronun ekonomik işler müdürüyle birlikte buluştu.

5.23	U uzoq kutib turdi (ular qandaydir qog'ozlar to'ldirishardi), Otaqul mudir bilan xo'shlasib, nariroqdagi mototsikli tomon yura boshlagach, u to'satdan uyg'onib ketganday, tez-tez yurib uning qarshisiga chiqdi.	O uzun süre bekledi (onlar bazı evrakları dolduruyorlardı), Atakul müdürle vedalaşıp ötedeki motosikletine doğru yürümeye başlayınca o aniden kalktı, hızlı hızlı yürüyüp ve onun karşısına çıktı.
5.24	— Siz bilan ikki og'iz gaplashib olmoqchi edim, — dedi u Otaqulga dadil tikilib.	— Sizinle biraz konuşmak istyordum, dedi Atakul'a cesurca bakarak.
5.25	— Vaqtingiz bo'lsa, xonaga kirsak.	— Vaktiniz varsa odaya girsek.
5.26	Otaqul unga ajablanib qarab turdi-yu, lekin uning izmiga bo'ysundi.	Atakul ona şaşkınlıkla baktı fakat onun yolundan gitti.
5.27	Shamsi Saloh va teatrning obro'liroq artistlari shiyponning burchagidagi xonada to'rt kishi bo'lib turishardi.	Şemsi Selah ve tiyatronun en prestijli sanatçıları çardağın köşesindeki odada dört kişiydiler.
5.28	Hozir xonada hech kim yo'q edi.	Artık evde hiç kimse yok idi.
5.29	O'rtada qo'lbola stol, ikki chetida gazeta to'shalgan ikkita uzun yog'och o'tirg'ich qo'yilgan edi.	Ortada el yapımı bir masa, iki kenarında gazete bulunan iki tane uzun ahşap sandalye var idi.
5.30	Shamsi Saloh Otaqulni o'tirishga taklif qildi.	Şemsi Selah Atakul'u oturmaya davet etti.

5.31	So‘ng oraga noqulay sukunat cho‘kib, o‘zining gapdan yanglishib qolishidan qo‘rqib, birdan gap boshlagan, aniq mo‘ljalga urish va bu boqi beg‘am, yuvosh odamga bo‘lgan g‘azabini his qilib turish uchun Otaquldan ko‘z uzmay turdi.	Sonra oraya rahatsiz edici bir sessizlik çöktü ve kendi sözlerinden yanılacağından korkarak aniden konuşmaya başlayan, kesin planlanmış, bu duyarsız, uysal adama olan öfkesini hissettirmek için gözlerini Atakul’dan ayırmadı.
5.32	— Sizga aytadigan birinchi, gapim shuki... ya’ni nima desamikin... bu ancha nozik masala...	— Size söyleyeceğim ilk söz şu ki; yani ne diyebilirim, bu çok hassas bir konu.
5.33	Lekin men kelin bilan gaplashdim.	Ama ben gelinle konuştum.
5.34	U rozi... faqat siz ko‘nmasangiz kerak deb qo‘rqayapti...	O kabul ediyor. Fakat siz ikna olmazsınız diye korkuyor.
5.35	Otaqul bahaybat va qo‘pol qo‘llarini stolga qo‘yib, omonatgina o‘tirar, o‘zining beso‘naqay gavdasidan xijolat tortayotganday edi.	Atakul kocaman ve sert ellerini masanın üzerine koyarak emanet gibi oturmuş, kendisinin hantal vücudundan utanıyormuş gibi görünüyor di.
5.36	Shu sababli uning gapini yaxshi anglolmadi.	Bu yüzden de onun ne dediğini iyi anlayamadı.
5.37	— Kim?	— Kim?
5.38	Nimaga rozi?	Neyi kabul ediyor?

5.39	So‘radi u talmovsirab, beg‘amroq yuzida birdan diqqat aks etdi.	O tereddüt dolu, gamsız yüzüne bir anda dikkat kesildi.
5.40	Shamsi Salohga hayrat to‘la ko‘zlarini tikdi.	Şemsi Selah’a hayretle gözlerini dikti.
5.41	— Kim deysizmi?	— Kimi diyorsunuz?
5.42	Kelin — Muazzam... u o‘qishni davom ettirmoqchi, juda yaxshi ovozi bor ekan, bu yerdagi hurmatli va taniqli odamlarning hammasi e’tirof etayapti — bunaqa ovoz kamdan-kam kishiga nasib qiladi — uni parvarish qilish kerak... halq uchun... odamlar uchun... uning esa bu yerda boshi ikir-chikirdan, mehnatdan chiqmaydi.	Gelin, Muazzam. O öğrenimine devam etmek istiyor, çok güzel bir sesi var, buradaki saygın ve ünlü insanların hepsi bunu kabul ediyor. Böyle bir ses pek az kişiye nasip olur, ona iyi bakılması gerekiyor. Halk için. İnsanlık için. Onun ise burada ıvır zıvırdan, işten kafası kalkmıyor.
5.43	Shunday iste’dodni siz odamlardan yashirib, bo‘g‘ip o‘tiribsiz.	Böyle bir yeteneği siz insanlardan saklıyor, bastırıyorsunuz.
5.44	Biz unga yordam bermoqchimiz... o‘qisin, o‘rgansin...	Biz ona yardım etmek istiyoruz. Okusun, öğrensin.
5.45	Otaqul avval tushunmayotgandek, unga beparvo quloq soldi, so‘ng nima gapligini anglagach yuzida	Atakul önce anlamıyormuş gibi kayıtsızca dinledi, sonra söylenenleri anlayınca yüzünde birden öfkeye benzer bir ifade belirdi.

	birdan qahrga o'xshash ifoda paydo bo'ldi.	
5.46	Shamsi Salohning nazarida uning ikki yonog'ida ikkita tig'i o'tkir xanjar jaranglab ochilib ketganga o'xshadi — ko'zlari katlashib, qorachiq'lari o'ynay boshladi, yuzida bezovtalik, norozilik jilvalandi.	Şemsi Selah'ın nazarında onun iki yanağına, iki keskin hançer saplanmış gibiydi, gözleri kısılıp gözbebekleri oynamaya başladı, yüzü rahatsızlık ve hoşnutsuzlukla doldu.
5.47	— Siz uning konglini eshitmay qo'yganmishsiz.	— Siz onun yüreğindeki sese kulak vermiyorsunuz.
5.48	Uning ko'ngli ozodlik istaydi, qo'shiq aytish — uning uchun hayot.	Onun gönlü özgürlük istiyor, şarkı söylemek, onun için hayattır.
5.49	Siz esa odamlar gap-so'z qiladi deb uni bu hayotdan mahrum qilib qo'yibsiz...	Siz ise insanlar konuşur diye onu bu hayattan mahrum bırakıyorsunuz.
5.50	Siz o'qigan yigitsiz.	Siz eğitimli bir gençsiniz.
5.51	Uni bug'mang, u ozod bo'lsin, u baxtli bo'lsin, istaganiga erishsin, u bilan kelajakda butun halqimiz faxrlanishi mumkin.	Onu boğmayın, o özgür olsun, o mutlu olsun, istediğini başarsın, gelecekte tüm halkımız onunla gurur duyacaktır.
5.52	Siz esa uni uyga qamab olgansiz...	Siz ise onu eve hapsediyorsunuz.
5.53	— Men nima qilishim kerak?	— Benim ne yapmam gerek?

5.54	Deb uning gapini bo‘ldi qo‘rslik bilan Otaqul.	Deyip onun lafini kesti kaşlarını çatarak Atakul.
5.55	U suhbat mavzuidan juda noroziga, oilasiga tegishli har qanday masalani birovlarining ishtirokisiz yolg‘iz hal qilishga o‘rganga, Shamsi Salohning gaplaridan g‘ashi kelayotganga o‘xshardi.	O sohbət konusundan hiç memnun değildi, ailesiyle ilgili herhangi bir konuyu başkalarının katılımı olmadan tek başına halletmeye alışkındı, görünüşe göre Şemsi Selah’ın sözlerinden rahatsız olmuşa benziyordu.
5.56	Uning ovozida qutqu bor edi.	Onun sesinde bir kışkırtma vardı.
5.57	Shu narsa Shamsi Salohni bir oz g‘azablantirdi.	Bu Şemsi Selah’ı biraz kızdırdı.
5.58	— Siz unga erkinlik bering, uni mana bu paxtangizga aralashtirmang.	— Siz ona özgürlük verin, onu, işte bu pamuğunuza karıştırmayın.
5.59	U shaharga ketsin, o‘qisin, ovozini tarbiya qilsin...	O şehre gitsin, okusun, sesini eğitsin.
5.60	— Axir, bu mumkin emas.	— Sonuçta bu mümkün değil.
5.61	Oilamiz, bolamiz bor.	Ailemiz, çocuğumuz var.
5.62	Men esa ketolmayman...	Ben ise ayrılamam.
5.63	— U shaharda bir umr qolib ketsin yoki bolasini tashlasin, deb aytayotganim yo‘q bu gaplarni.	— O şehirde sonsuza kadar kalsın ya da çocuğunu terk etsin diye söylemiyorum bu sözleri.
5.64	Men sizlarni ajratmoqchi emasman.	Ben sizi ayırmak istemiyorum.

5.65	Faqat uning o‘qishiga, ovozi parvarish qilishga sharoit yaratib berish kerak demoqchiman.	Fakat onun okuması ve sesine dikkat etmesi için koşullar yaratmanın gerekli olduğunu söylemek istiyorum.
5.66	Siz uni qo‘llab-quvvatlashingiz kerak...	Sizin ona destek olmanız gerek.
5.67	— Agar rozi bo‘lmasam-chi — dedi Otaqul to‘satdan to‘nini teskari kiyib olib Shamsi Salohning jig‘iga tegmoqchidek jizzakilik va bepisandlik bilan.	— Eğer kabul etmek istemezsem, dedi Atakul aniden kaftanını ters çevirip Şemsi Selah’ın bam teline dokunmak istiyormuş gibi öfkeyle ve küstahlıkla.
5.68	— Unda o‘z xotiniga feodallarcha munosabatda bo‘layapti, diplomli feodal, o‘rta asr aqidalari tarafdori deb gazetada urib chiqamiz... bu yog‘ini o‘zingiz bilasiz... o‘ylab ko‘ring.	— O halde karısına feodaller gibi davrandığını, diplomalı bir feodal olduğunu, orta çağ inançlarının destekçisi diye gazetede söyleyeceğiz. Bunu kendiniz bilirsiniz. Düşünüp taşının.
5.69	Otaqul xo‘mrayib oldi.	Atakul kaşlarını çattı.
5.70	U tabiatan bosik, og‘ir bo‘lgani bilan hozir xuddi yosh bolaga o‘xshab qizarib ketgan, sal ishora bo‘lsa janjal chiqarishdan qaytmaydigan holatda edi; lablarini jahl bilan qisib olgandi; qarshisida o‘tirgan, hasharchilar o‘rtasida allanechuk obro‘ga ega bo‘lgan, sovxoz rahbarlari ham xushomad bilan gaplashadigan,	O doğası gereği ağır olmasına rağmen aynı küçük bir çocuk gibi yüzü kızarmıştı, en ufak birşeyde kavga başlatmaktan çekinmeyecek bir durumda idi. Öfkeyle dudaklarını büzdü, karşısında duran ırgatlar arasında bir üne sahip, sovxoz yöneticilerinin de övgüyle konuştuğu, kendi eserlerini okumasa da "yazar" lakabını taşıyan bir adam

	o‘zi asarlarini o‘qimagan bo‘lsa ham “yozuvchi” degan nomi bor kishi turgani uchun o‘zini zo‘rg‘a bosib, odob doirasidan chetga chiqadigan biron gap gapirib qo‘ymaslik uchun tillarini tishlab turgandek edi.	için kendini zor tutuyor, edep sınırlarını aşacak bir şey söylememek için dilini ısırıyor idi.
5.71	— To‘g‘ri, sizni ham tushunaman, — dedi Shamsi Saloh uning juda tovsillanib qolganini ko‘rib, — sizning erlik huquqingiz bor, shu sababli har narsa qilishingiz mumkin.	— Doğru, sizi de anlıyorum, dedi Şemsi Selah, onun çok kararsız kaldığını görünce. Sizin de kocalık hakkınız var, bundan dolayı her şeyi yapabilirsiniz.
5.72	Gap shundaki, barcha erlar kabi o‘jarlik yoki kaltabinlik qilgansiz, katta bir iste‘dodni tiriklay qurbon qilgan bo‘lasiz.	Laf şöyle ki, tüm kocalar gibi siz de inatçılık ya da kıt kafalılık yaparak büyük bir yeteneği canlıyken feda edeceksiniz.
5.73	Bu gaplarni sizga aytish menga ham qanchalik og‘ir ekanligini tushunarsiz deb o‘ylayman, sizga hamma narsaga aqli etgan, oq-qorani ajrata oladigan kishiga murojaat qilayapman.	Bunları size anlatmanın benim için ne kadar zor olduğunu anlarsınız diye düşünüyorum, her şeye akli olan, akla karayı ayırt edebilen bir insana sesleniyorum.
5.74	Siz oz bo‘lsa ham shahar ko‘rangiz; hech qursa, kinolarda, teatrlarda ko‘rsansiz.	Siz az da olsa şehri görüyorsunuz, hiç değilse, filmlerde, tiyatrolarda da göreceksiniz.
5.75	Axir biz qachongacha Evropadan o‘rnak olamiz, ularni o‘qib o‘rganmiz, san‘at, jasorat	Sonuçta biz ne zamana kadar Avrupa'yı örnek alacağız, onları okuyup öğreneceğiz, sanat ve cesaret

	deganda ularni misol qilib ko'rsatamiz?!	deyince onlari örnek olarak göstereceğiz?
5.76	Xo'sh, o'zimizda nega yo'q?..	Peki bizde neden yok?
5.77	Sababli minglab Muazzamlar oila botqog'iga botib, ko'rinmay yotibdi, mana bunaqa tashvishlar ulardagi tabiat in'om etgan iste'dodlarni yeb bitirayapti.	O yuzden binlerce Muazzamlar aile bataklığında boğuluyor, görünmez oluyor, işte bu haller tabiatın onlara verdiği yetenekleri tüketiyor.
5.78	Tug'ish, qozontoboq, dala ishlari, g'iybatlar, uydirmalar — qanchalik ko'p ayollarimizni qurbon qilmayapti deysiz.	Doğum, ev işleri, tarla işleri, dedikodular, yalanlar. Ne kadar çok kadınıımız feda ediliyor.
5.79	Tuzukkina qobiliyati bor ayollarimiz bir bola tug'adi-yu, so'ng hammasini unutadi; keyin quyonga o'xshab har yili tug'averadi, tug'a-tug'a, azbaroyi arvohga aylanadi — johil er, qora turmush, chirqillab turgan bolalar — mana bizga Evropaga yetib olishimizga nima to'sqinlik qilayapti?	Güzel yeteneklere sahip kadınlarımız bir çocuk doğurur, sonra her şeyi unuttur, sonra bir tavşan gibi her yıl doğum yapar, doğum üstüne doğum yapar, uğruna hayalette dönüşür. Cahil koca, kara evlilik, ağlayan çocuklar, işte bizi Avrupa'ya ulaşımdan alıkoyan engel nedir?
5.80	Biroq, ulug', daho, go'zal degan so'zlarni negadir faqat ularga ishlatamiz, o'zimizga kelganda mum tishlab o'tiramiz.	Oysa büyük, dahi, güzel sözcüklerini nedense sadece onlar için kullanırız, kendimize gelince mum ısıtırız.

5.81	Buyuklik uchun odam o'zini, zarur bo'lsa oilasini ham qurbon qilishi kerakligini tushunmaymiz.	Büyüklik için insanın kendini, gerekirse ailesini de feda etmesi gerektiğini anlamıyoruz.
5.82	Siz, albatta, mening gaplarimni tushunmayotgandirsiz?!	Siz elbette benim ne dediğimi anlamıyorsunuz?
5.83	Otaqul uzoq indamay, oyog'ining uchlariga qarab o'tirdi.	Atakul uzun süre sessizce ayaklarının uçlarına bakarak oturdu.
5.84	Uning nimadir degisi kelar, lekin ozg'in yozuvchining og'zidan o'qday otilib chiqayotgan savlatli gaplar uni avvaliga shashtidan tushirgan, bu gaplarda jon borga o'xshar, ishongisi kelar, ko'nglining bir chetida qandaydir bir hakam "bular hammasi yolg'on, bular hammasi yolg'on" deb shivirlar, bu savlatli gaplarda ham allanechuk zo'rakilik, yashamalik borga o'xshab tuyulardi.	O bir şeyler söylemek istiyor lakin zayıf yazarın ağzından ok gibi çıkan ihtişamlı sözler onu heveslendiriyor, sanki bu sözlerde hayat varmış gibi inanmak istiyor ama aklının bir köşesinde bir yargıç "bunların hepsi yalan, bunların hepsi yalan" diye fısıldıyor, bu azametli sözlerde bile zorakilik ve yapmacıklık varmış gibi hissediyordu.
5.85	— Muazzam bu turmushdan juda bezgan.	— Muazzam bu hayattan çok bezmiş.
